

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI KENGASHINING**  
**2021/2022 O'QUV YILI 10 YIG'ILISHI**  
**BAYONI**

**2022-yil 7- iyun**  
**Katta yig'inlar zali**

**Buxoro shahri**  
**soat 8:30**

**Раислик қилди:**

О.Х.Хамидов - кенгаш раиси, Бухоро давлат университети ректори, п.ф.д., проф.

**Иштирок этганлар:**

Н.Г.Дилова - кенгаш котиби, п.ф.ф.д.,(PhD) доц.  
БухДУ кенгаши аъзолари умумий сони:73 нафар  
Қатнашди: 70 нафар кенгаш аъзоси ва таклиф қилингандар (рўйхат асосида)

Buxoro davlat universiteti kengashining 2021-2022 o'quv yilining 10-yig'ilishini kengash raisi, universitet rektori, i.f.d., professor O.X. Xamidov ochib berdi.

Kengashning kirish qismida universitet rektori O.X.Xamidov Oliy Attestatsiya komissiyasi qarori bilan tasdiqlangan ilmiy unvon va ilmiy daraja olgan quyidagi professor-o'qituvchilar taqdirlandi.

**Professor ilmiy unvoni bilan taqdirlanadi:**

1. Gumanitar yo'nalishlarda chet tili kafedrasi mudiri, f.f.n., dotsent Hikmatova Muqaddas Nurullayevna

**Dotsent ilmiy unvoni bilan taqdirlanadi:**

2. O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, f.f.d. Sharipova Laylo Frunzeyevna
3. Jismoniy madaniyat nazaryasi va uslubiyoti kafedrasi dotsenti p.f.f.d (PhD) I.I. Saidovni dotsent ilmiy unvoni
4. Ingliz tilshunosligi kafedrasi dotsenti, f.f.f.d. (PhD) Xoliqova Nozima Ne'matilloyevna
5. Musiqa ta'limi kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. (PhD) Karimov Olimxo'ja Islomovich
6. Musiqa ta'limi kafedrasi mudiri p.f.f.d (PhD) Rajabov To'xtasin Ibodovich
7. Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti dotsenti Raximov Farrux Boltayevich
8. Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrasi mudiri, dotsent Sattorov Anvar Ergashovich

**Yo'nalishlar bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasi (PhD) bilan taqdirlanadi:**

9. Islom tarixi va manboshunosligi, falsafa kafedrasi o'qituvchisi Qayumova Aziza Toshmuradovna
10. Jahon tarixi kafedrasi o'qituvchisi Ergashev Jahongir Yunus o'g'li
11. Horijiy tillar fakulteti Yoshlar bilan ishslash bo'yicha dekan o'rinosari Karimov Rustam Abdusattorovich
12. Tuproqshunoslik kafedrasi o'qituvchisi Umarov Otabek Rafoilovich
13. Axborot texnologiyalari kafedrasi o'qituvchisi Zaripov Nozimbek Nayimovich
14. Pedagogika kafedrasi o'qituvchisi Farmonova Shabon Muxammadovna
15. Organik va fizkolloid kimyo kafedrasi o'qituvchisi Sulaymonova Zilola Abduraxmonovna
16. Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasi o'qituvchisi Gulova Anorgul Axtamovna

## **17. Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrasi o'qituvchisi Ostonova Gulshod Razzokovna**

Universitet rektori, kengash kotibi Oliy Attestatsiya komissiyasi qarori bilan tasdiqlangan ilmiy unvon va ilmiy daraja olgan barcha professor-o'qituvchilarni erishgan yutuqlari bilan tabriklab, ularning kelgusidagi ilmiy – ijodiy faoliyatlariga omad tiladi.

### **Shundan so'ng, kengash o'z ishini davom ettirdi.**

Kengash raisi bugungi 10- kengash yig'ilishida 73 nafar kengash a'zosidan 70 nafari ishtirok etayotganligini, 3 nafar kengash a'zosi sababli bugungi kengashda ishtirok etmayotganligini ma'lum qilib, yig'ilishni ochish to'g'risidagi masalani kengash a'zolari hukmiga havola etdi. Kengash a'zolari yig'ilishni ochiq deb qabul qilishni bir ovozdan ma'qullahdi.

Shundan so'ng, kengash kun tartibi o'qib eshittirildi.

### **KUN TARTIBI:**

#### **I. 2021/2022 o'quv yilida Buxoro davlat universiteti jamoasi oldida turgan asosiy vazifalar va ularni ijro etish yo'nalishi bo'yicha:**

**1.1** universitetda barcha yo'nalishlar bo'yicha hukumat topshiriqlarining bajarilish holati haqida

**Ma'ruzachi: universitet rektori, Kengash raisi O.X. Xamidov**

**1.2.** Universitetda pedagog xodimlar orasida yuz berayyotgan korruption xuquqbazarliklar, universitet ichki tartib qoidalari va odob-axloq kodeksiga amal qilmaslik holatlarining mavjudligi hamda ularning oldini olishga qaratilgan chora tadbirilar to'g'risida.

**Ma'ruzachi: Korrupsiyaga qarshi kurashish "Kopmlaens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i Y.K. Quliyev**

#### **II. Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar yo'nalishi bo'yicha:**

**2.** Talabalar turar joyi ma'muriyatining faoliyati, talabalar turar joyida olib borilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar, u yerda yaratilgan shart-sharoitlar, uni takomillashtirish, "Kafedra kunlari"ning o'tkazilish holati to'g'risida

**Ma'ruzachi: Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha 1- prorektor A.A. Amonov**

#### **III. O'quv jarayoni vo'nalishi bo'yicha:**

**3.1.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi PQ 60 hamda PQ 61-son qarorlari bilan akademik, tashkiliy-boshqaruv va moliyaviy sohalarda Buxoro davlat universitetida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida

**Ma'ruzachi: O'quv ishlari bo'yicha prorektor R.Jumayev**

**3.2.** Xorijiy tillar fakulteti professor-o'qituvchilarining O'zR Prezidentining 5117-sonli qarorida nazarda tutilgan C1 darajasiga tenglashtirilgan xalqaro va milliy sertifikatlarga egalik holati to'g'risida

**Ma'ruzachi: Xorijiy tillar fakulteti dekani. N.B. Atabayev**

#### **IV. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar yo'nalishi bo'yicha:**

**4.** Universitetda davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida e'lon qilingan tanlovlarga taqdim etilgan loyihamlar to'g'risida

**Ma'ruzachi: Ilmiy innovatsion ishlarnamalarni tijoratlashtirish bo'limi boshlig'i O. Sayfulloyev**

## **V. Tanlovlari.**

**5.1.** BuxDU kafedra mudiri, dotsent, katta o‘qituvchi va o‘qituvchi lavozimlariga tanlovlari to‘g‘risida

**5.2.** BuxDUNing PI kafedra mudiri, dotsent, katta o‘qituvchi va o‘qituvchi lavozimlariga tanlovlari to‘g‘risida (**Kengash kotibi N.Dilova**)

## **VI. TURLI MASALAR.**

**6.1.** Universitetning pedagog xodimlari tomonidan tayyorlangan o‘quv qo‘llanmalarni vazirlik grifini olishga tavsiya berish to‘g‘risida.

**6.2.** Moliyaviy, akademik va tashkiliy-boshqaruv sohasida mustaqillik berish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari ijrosidan kelib chiqib, TARTIBLARni tasdiqlash to‘g‘risida.

**6.3.** Universitet ta’lim, ilmiy, tashkiliy-boshqaruv va boshqa faoliyatlariga xorijiy mutaxassis va vatandoshlarni jalb qilish, 2022-yilda jalb qilinishi rejalashtirilgan professor-o‘qituvchilar ro‘yxatini tasdiqlash bo‘yicha.

**6.4.** Germaniya Federativ Respublikasiga Work and travel, stajirovka, amaliyot dasturlari bo‘yicha safarga ketayotgan talaba va o‘qituvchilar faoliyati, o‘qishini muvofiqlashtirish to‘g‘risida

**6.5.** 2021/2022 o‘quv yili bitiruvchilari diplomlarini rasmiylashtirish uchun diplom kvalifikatsiyalarini tasdiqlash to‘g‘risida

**6.6.** Kafedra professor-o‘qituvchilarini professor va dotsent ilmiy unvoniga tavsiya etish to‘g‘risida.

**6.7.** Buxoro davlat universitetida budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan grant ajratish orqali doktoranuraga tanlov asosida kvotaga qo‘sishma ravishda qabul qilish TARTIBI ni tasdiqlash to‘g‘risida

**6.8.** Falsafa doktori (PhD) doktorlik dissertatsiya mavzusi va ilmiy rahbarini qayta tasdiqlash to‘g‘risida

**6.9.** Buxoro davlat universiteti kengashiga Qoshma dasturlarni muvofiqlashtirish bo‘limi tomonidan BuxDU va Holon texnologiyalar instituti bilan hamkorlikdagi qo‘shma ta’lim dasturlari 3-bosqich talabalarining shartnoma uchun to’lovlarini tartibga solish tog‘risida

**6.10.** Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020-yil 10-avgustdagi 412-sod buyrug‘i asosida magistraturaning oxirgi bosqichi talabalariga bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarining xususiyatlaridan kelib chiqib, universitet kengashi qarori asosida bakalavriat talabalariga dars berish uchun 0,5 stavkagacha pedagogik faoliyat olib borishga ruxsat berish to‘g‘risida

**6.11.** 2021/2022 o‘quv yili 2-jarayonida o‘qishini muddatidan oldin topshiradigan talabalarga ruxsat berish to‘g‘risida

**6.12.** 2021/2022 o‘quv yili qabulida shartnoma pulini 1-aprelgacha to’lamagan talabalarni talabalar safiga qabul qilishga ruxsat berish to‘g‘risida

## **Ushbu kun tartibi va reglamenti xususida takliflaringiz bormi?**

**Ovozlar:** tasdiqlansin.

**RAIS:** kun tartibini tasdiqlash to‘g‘risida taklif bo‘ldi. Uni ovozga qo‘yaman.

Tarafdarlar 70 nafar

Qarshilar – yo‘q.

Betaraflar – yo‘q.

Demak, kun tartibi tasdiqlandi. Kun tartibidagi maslalar muhokamasiga o‘tamiz.

## KUN TARTIBI BO‘YICHA MASALALAR MUHOKAMASIGA O‘TILDI

I. 2021/2022 o‘quv yilida Buxoro davlat universiteti jamoasi oldida turgan asosiy vazifalar va ularni ijro etish yo‘nalishi bo‘yicha:

**1.1 Universitetda barcha yo‘nalishlar bo‘yicha hukumat topshiriqlarining bajarilish holati haqida**

**ESHITILDI: O.X. Xamidov** (universitet rektori, Kengash raisi) kengash a’zolariga universitetda barcha yo‘nalishlar bo‘yicha hukumat topshiriqlarining bajarilish holati haqida axborot berdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-oktabrdagi “O‘zbekiston respublikasi oliv ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi farmoniga asosan, OTMni yanada rivojlantirish, yuqoridagi topshiriqlar ijrosini ta’minalash maqsadida universitetimizda barcha yo‘nalishlar bo‘yicha belgilangan bir qator amaliy ishlar olib borilmoqda.

Barcha ta’lim yo‘nalishlari ma’sullari o‘zlariga tegishli chora-tadbirlar asosida universitetdagi ta’lim-tabiya jarayonini rivojlantirishni yuqori darajaga olib chiqish bo‘yicha oliv ta’lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta’lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta’minalash asosida ta’lim sifatini yaxshilash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan ishlar amalga oshirilayotganligini aytib o‘tdi.

Fakultet dekanlari, bo‘lim boshliqlarining hisobotlari eshitildi.

**Kengash raisi O.X. Xamidov:** ushbu masala bo‘yicha kimda qanday savol yoki takliflar bor, marhamat!

Ushbu masala bo‘yicha kengash a’zolaridan prorektorlar R. Jumayev, O‘. Rashidov, A. Jo‘rayevlar, dekanlar H. Jo‘rayev, B Ma’murov, D. Yavmutov, H. Eshankulov, H. Artikova kafedra mudirlari A. Abdullayev, N. Kasimova, S. Nazarova, A. Xollev, T. Shafiyev, B. Namozov. Sh. Olimov, M. Ro‘ziyeva, M. Hikmatova, O. Fayzullayev, A. Axmedov, A. Murtazoyevlar ham o‘z taklif va fikrlarini bildirishdi.

Universitetda barcha yo‘nalishlar bo‘yicha hukumat topshiriqlarining bajarilishi borasidagi olib borilayotgan ishlarni yanada jonlantirish bo‘yicha takliflar berildi.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**

1. Universitet rektori, Kengash raisi O.X. Xamidovning universitetda barcha yo‘nalishlar bo‘yicha hukumat topshiriqlarining bajarilish holati haqidagi axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. Universitetda barcha yo‘nalishlar bo‘yicha hukumat topshiriqlarining bajarilish holati qoniqarli deb topilsin.
3. Universitetda har bir ta’lim yo‘nalish faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha takliflar berilsin. (Ma’sullar: prorektorlar, dekanlar, bo‘lim boshliqlari) muddat – 20.08.2022y gacha
4. Ushbu qaror ijro nazorati o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor R.G. Jumayev zimmasiga yuklatilsin.

**1.2. Universitetda pedagog xodimlar orasida yuz berayyotgan korrupsiyon xuquqbuzarliklar, universitet ichki tartib qoidalari va odob-axloq kodeksiga amal qilmaslik holatlarining mavjudligi hamda ularning oldini olishga qaratilgan chora tadbirlar to‘g‘risida.**

**ESHITILDI: Y.K. Quliyev** (Korrupsiyaga qarshi kurashish “Kopmlaens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i) axboroti

Korrupsiyaga qarshi kurashish “Kopmlaens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i Y.K. Quliyev kengash a’zolariga Universitetda pedagog xodimlar orasida yuz berayyotgan korrupsiyon xuquqbuzarliklar, universitet ichki tartib qoidalari va odob-axloq kodeksiga amal

qilmaslik holatlarining mavjudligi hamda ularning oldini olishga qaratilgan chora - tadbirlar to‘g‘risida axborot berdi.

Ushbu masala bo‘yicha kengash raisi O.X. Xamidov va kengash a’zolari o‘z fikr-mulohazalarini bildirishdi.

### Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**

1. Yangi oquv yili arafasida ishga qabul qilish masalalari, bitiruvchi magistr talabalarini ishga qabul qilish jarayonlariga aralashmaslik, korruption holatlarni sodir etmaslik
2. Yakuniy nazoratlar, bitiruv malakaviy ishlari, amaliyot jarayonlari davrida talabalar bilan boladigan munosabatlarda ehtiyyot bolish, korruption huquqbazarliklar yuz berishi oldini olish.
3. Universitet ichki tartib qoidalari hamda odob axloq kodeksi talablarining buzilishi haqida aniqlangan holatlar yuzasidan har bir fakultet kengashida muhokama qilinsin hamda bayonnomalashtirib, bolimga taqdim qilinsin.
4. Fakultetidagi pedagog xodimlar orasida anilqangan holatlar har bir kafedra kesimida muhokama qilinib, ulardan qoshimcha kafolat xatlarini olish, ushbu holatlar takrorlanganda ular bilan bir tomonlama shartnomani bekor qilish

---

### **II. Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar yo‘nalishi bo‘yicha:**

**2. Talabalar turar joyi ma’muriyatining faoliyati, talabalar turar joyida olib borilgan ma’naviy-ma’rifiy ishlar, u yerda yaratilgan shart-sharoitlar, uni takomillashtirish, “Kafedra kunlari”ning o’tkazilish holati to‘g‘risida**

**ESHITILDI: A.A. Amonov** (*Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha 1-prorektor*) kengash a’zolariga talabalar turar joyi ma’muriyatining faoliyati, talabalar turar joyida olib borilgan ma’naviy-ma’rifiy ishlar, u yerda yaratilgan shart-sharoitlar, uni takomillashtirish, “kafedra kunlari”ning o’tkazilish holati to‘g‘risida axborot berdi.

Buxoro davlat universitetida 2021-2022 o‘quv yilida **24 324 (23020 nafari** bakalavriat, **1304 nafari** magistratura) nafarni, jumladan, ularning **16080 nafari** bakalavriat kunduzgi, 5063 nafari sirtqi, **775 nafari** kechki, **1102 nafari** **2-mutaxassislik** hamda **1304 nafari** magistratura bosqichida o‘qimoqda. Xorijiy talabalarning umumiyligi soni 282 nafarni tashkil etadi.

Buxoro davlat universitetiga qarashli **7 ta** Talabalar turar joyi mavjud bo‘lib, 1-7 binolarda jami 2249 nafar talaba istiqomat qiladi. Shundan **1789 nafar** qizlar hamda 40 nafari nogiron yigitlar 1-6 binolarda (Jami 1829 nafar talaba 1-6 binolarda),

BuxDU Talabalar turar joyi hamda TTJga joylashtirish Nizomlari mavjud bo‘lib, mazkur Nizomga muvofiq talabalar joylashtirilgan. TTJga joylashtirishda birinchi navbatda xorijlik va uzoq viloyatdan kelib tahsil olayotgan, nogiron, yetim, otasi yoki onasi yo‘q, ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalar joylashtirilgan.

BuxDUda 198 nafar nogironlar tahsil olmoqda. Shundan 92 nafari TTJ ehtiyoji borligini bildirgan va 1-bino 1-qavatida 44 nafar, 2-binoda 13 nafar, 3-binoda 7 nafar, 4-binoda 12 nafar, 5 binoda 2 nafar, 6-binoda 14 nafar, 7-binoda 11 nafar talaba joylashtirilgan. Belgilangan tartibga muvofiq nogironlar uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan.

Buxoro davlat universiteti kengashining 2020-2021 o‘quv yili navbatdan tashqari 5-yig‘ilish bayoni qaroriga muvofiq bir oylik to‘lov olik to‘lov miqdori bazaviy hisoblash miqdorining 45% etib belgilangan (149 000 so‘m).

O‘rnatalilgan tartibda chin yetim (davlat qaramog‘iga olingan) va 1-2-guruh nogironligi bo‘lgan talabalar talabalar turar joyi to‘lovidan ozod qilingan.

Ota-onasi (davlat qaramog‘iga olinmagan) hamda 3-guruh nogironligi bo‘lgan talabalarga to‘lovni 50% to‘lash imkonini berilgan.

2021-2022 o‘quv yili davomida yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o’tkazish maqsadida Vatanparvarlik tarbiyasi bo‘yicha 20 ta (130 nafar professor-o‘qituvchi va 3200 nafar talaba-yoshlar ishtirokida), axloqiy tarbiyaga oid 8 ta (360 nafar professor-o‘qituvchi va 2800 nafar talaba-yoshlar ishtirokida), fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish va huquqiy tarbiya bo‘yicha 15 ta (210 nafar

professor-o‘qituvchi va 2870 nafar talaba-yoshlar ishtirokida), sport yo‘nalishi bo‘yicha 30 ta (1200 nafar talaba ishtirokida), millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik ruhida tarbiyalash bo‘yicha 10 ta (110 nafar professor-o‘qituvchi va 1580 nafar talaba-yoshlar ishtirokida) uchrashuv va davra suhbatlari, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazilgan.

Universitetda amalga oshiriladigan ma’naviy-ma’rifiy hamda mavsumiy chora-tadbirlar ijrosini ta’minalash maqsadida universitetda “Oylik yo‘l xaritasi” shakllantirilgan. Yo‘l xarita asosida oy davomida amalga oshiriladigan ishlari belgilanib ijrosi oy yakunida muhokama qilingan. Yo‘l xarita asosida fakultetlar tomonidan amalga oshirilgan tadbirlarni asoslovchi barcha me’yoriy hujjatlar bo‘limda jamlangan. Bundan tashqari Talabalar turar joyida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli amalga oshrish maqsadida “Kafedra kunlari” tashkil etilgan. “Kafedra kunlari” taqsimot rejasiga muvofiq har bir kafedra tomonidan amalga oshiriladigan vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalar doirasida 5 ta tashabbusga alohida e’tibor qaratilgan. “Oylik yo‘l xaritasi”, “Kafedra kunlari”, “5 tashabbus kuni” (Talabalar turar joyida har haftaning juma kuni) doirasida amalga oshirilgan tadbirlar universitet rasmiy veb-saytida va ijtimoiy tarmoqlaridagi kanallarida keng yoritilgan.

“Kafedra kunlari” jadvali bo‘lim tomonidan joriy etilgan. Jadvalga muvofiq har haftaning dushanba-payshanba kunlari har bir kafedra tomonidan TTJda belgilangan sana va oylarda amalga oshiriladigan ishlari belgilangan. Har bir belgilangan sanada kafedralar faoliyati nazoratga olingan bo‘lib, amalga oshirgan ishlari [@buxdu\\_5stashabbus](#) va [@MANAVIYATLIINSONLAR](#) kanallarida keng yoritib borilgan.

Bundan tashqari har haftaning juma kuni TTJda “Besh tashabbus kuni” etib belgilangan. Mazkur kunlarda TTJda fakultetlar kesimida amalga oshiriladigan ishlari belgilangan bo‘lib, ular tomonidan TTJ da tashkil etilgan “Besh tashabbus markazi”dan unumli foydalani moqda.

Fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish va huquqiy tarbiya, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganish, axloqiy tarbiya, kiyinish odobi, milliy qadiryatlarga oid bo‘yicha davra suhbatlari, “Vatan himoyachilari” kuniga bag‘ishlab davra suhbati va sport musobaqalari tashkil etilgan. Amir Temur, Alisher Navoiy, Muhammad Zaxiriddin Bobur va boshqa buyuk allomalarga bag‘ishlangan she’riyat kechalari va musiqali tadbirlar amalga oshirilgan. Shaxmat, shashka, stol tennisi va aprimrestling bo‘yicha sport musobaqalari o‘tkazilgan.

Bundan tashqari madaniy tadbirlar, ko‘rik-tanlovlar o‘tkazilgan. O‘tkazilgan tadbirlar tegishli tartibda rasmiylashtirilgan bo‘lib kafedrada saqlanmoqda.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2019-yilning 19-martida Yoshlar bilan ishlashni samarali tashkil etishda madaniyat, san’at, sport, axborot texnologiyalari, kitob o‘qishga qiziqishni oshirish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusni amalga oshirish maqsadida talabalar turar joyida bir qator kitobxonlik kechalari, shoir va yozuvchilar bilan uchrashuvlar, sport musobaqalari va boshqa tadbirlar o‘tkazilib kelinmoqda.

Talabalar turar joyida faoliyat olib boruvchi tarbiyachi pedagoglar faoliyati ham alohida nazoratga olingan bo‘lib, lavozim vazifalaridan kelib chiqib chora-tadbirlar rejasiga ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Mazkur chora-tadbirlar rejasiga muvofiq tarbiyachi pedagoglar tomonidan 5 tashabbus doirasida 50 dan ortiq tadbirlar amalga oshirildi va amalga oshirilgan ishlari ijtimoiy tarmoqlardagi kanallarda keng yortildi. Bundan tashqari talabalarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida turli madaniy ma’rifiy tadbirlar, tanlovlар, ijodiy kechalar tashkil etildi.

Ular tomonidan amalga oshirgan ishlari [@buxdu\\_5stashabbus](#) va [@MANAVIYATLIINSONLAR](#) kanallarida keng yoritib borilmoqda.

**Kengash raisi O.X. Xamidov:** ushbu masala bo‘yicha kimda qanday savol yoki takliflar bor, marhamat!

Ushbu masala bo‘yicha kengash raisi O.X. Xamidov hamda a’zolari o‘z fikr mulohazalarini bildirishdi. Talabalar turar joyi ma’muriyatining faoliyati, talabalar turar joyida olib borilgan ma’naviy-ma’rifiy ishlari, u yerda yaratilgan shart-sharoitlar, uni takomillashtirish, “kafedra kunlari”ning o‘tkazilishi bo‘yicha olib borilgan ishlari tizimli amalga oshirilganligini e’tirof etishdi.

## Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**

Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor A.Amonovning Talabalar turar joyi ma’muriyatining faoliyati, talabalar turar joyida olib borilgan ma’naviy-ma’rifiy ishlar, u yerda yaratilgan shart-sharoitlar, uni takomillashtirish, “Kafedra kunlari”ning o’tkazilish holati to‘g‘risidagi axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

1. Talabalar turar joyida har bir kafedralar tomonidan har oyda bir marotaba “Kafedra kuni” tadbirlarini o’tkazishga alohida e’tibor qaratilsin. “Kafedra kunlari” rejalarida mas’ul shaxslarni belgilash, tadbirlarni o’tkazilishini nazorat qilish kafedra mudirlari va dekan o‘rinbosarlariga yuklatilsin.

2. Talabalarning qiziqishlari va talabalarini inobatga olgan holda talabalar turar joyida to‘garak va klublar tashkil etilsin. To‘garak mashg‘ulotlarining sifatli o’tkazilishi kafedra mudirlari va dekan o‘rinbosarlariga yuklatilsin.

3. Talabalar turar joyi binolarining sanitariya holatlarini, oshxona va hojatxonalardagi sanitariya jihozlarining ishga yaroqliligini muntazam ravishda nazorat qilish TTJ direktori V.Nusratovga yuklatilsin.

---

### **III. O‘quv jarayoni vo‘nalishi bo‘yicha:**

#### **3.1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi PQ 60 hamda PQ 61-son qarorlari bilan akademik, tashkiliy-boshqaruv va moliyaviy sohalarda Buxoro davlat universitetida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida**

**ESHITILDI: R.Jumayev** (*O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor*) kengash a’zolariga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi PQ 60 hamda PQ 61-son qarorlari bilan akademik, tashkiliy-boshqaruv va moliyaviy sohalarda Buxoro davlat universitetida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida axborot berdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi PQ 60 hamda PQ 61-son qarorlari bilan akademik, tashkiliy-boshqaruv va moliyaviy sohalarda buxoro davlat universitetida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

#### **Akademik mustaqillik sohasida**

2022/2023 o‘quv yilda kredit modul tizimi asosida ta’lim oladigan 1- kurs talabalar uchun o‘quv rejalar va malaka talablari loyihalari O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 16-iyuldaggi 311-sonli “Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi xatiga asosan mutaxassislik kafedra professor-xodimlari tomonidan kadrlar buyurtmachilarining takliflarini inobatga olgan holda kredit-modul tizimi asosida tayyorlandi.

2-4 – kurs bakalvriat kunduzgi ta’lim shaklida tahsil oladigan talabalar uchun ishchi o‘quv rejalar tayyorlanmoqda, joriy yilning 6-iyun sanasida tasdiqlash rejalashtirilgan.

Mutaxassislik kafedralarining ilmiy salohiyati yuqori bo‘lgan professor-o‘qituvchilariga tegishli ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha fan dasturlari ishlab chiqilishi bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Mazkur jarayonlarning borishi o‘quv-uslubiy boshqarma tomonidan muntazam ravishda tahlil nazorat qilib borilmoqda.

2022/2023 o‘quv yili uchun ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarning o‘quv rejalar hamda fan dasturlarini dunyoning nufuzli, TOP-500 talikdagi OTMlari tajribasi asosida ishlab chiqish ham qiyosiy tahlil qilgan holda fan dasturlari (sillabus) lar ishlab chiqilmoqda.

Shuningdek, universitetga TOP-500 talikka kiruvchi OTMlarning yetakchi professor-o‘qituvchilarini o‘quv jarayoniga jalb qilish bo‘yicha OTMlararo muzokaralar olib borilmoqda.

Akademik mustaqillik 2022/2023 o‘quv yilidan joriy etilishi munosabati bilan, qabul qilinadigan bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun o‘qish davomiyligi muddati universitet kuzatuv kengashi, ish beruvchi tashkilotlar va hamkor OTMlar bilan kelishilgan holda takliflar tayrlanmoqdi va Kuzatuv kengashining yig‘ilishi muhokamasiga kiritilishi rejalashtirilgan.

Shu bilan birga, doktoranturada to‘lov-kontrakt asosida o‘qish qiymati belgilash, budgetdan tashqari mablag‘lar hisobidan grant ajratish orqali doktoranturaga tanlov asosida kvotaga qo‘srimcha ravishda qabul qilish tartibini ishlab chiqish maqsadida turdosh hamda xorijiy OTMlarning tajribasi o‘rganildi, jarayon izchillik bilan davom ettirilmoqda.

2022-yilning bиринчи choragida almashinuv doirasida 13 nafar talaba xorijning ilg‘or OTMlарига almashinuv dasturlari doirasida yuborilgan. Jumladan Fransiyaning VATEL oliv mактабига 8 nafar talaba, AQShning Montavello universiteti va Diksi davlat universitetlariga 2 nafar, Germaniyaning Myunster universitetiga 1 nafar, Turkiyaning Istambul Tijorat universiteti 1 nafar, Qиргизистонда C5+1 dasturi doirasida bir nafar talaba safarga yuborilgan. Rossiya Federatsiyasining Qozon federal universitetidan 1 nafar talaba universitetida almashinuv asosida 10 kunlik stajirovka o‘tagan.

Shuningdek, 2022/2023 o‘quv yilidan boshlab turdosh OTMlar bilan ham talabalar va pedagog xodimlar almashinuvi yuzasidan shartnomalar imzolanishi rejalashtirilgan.

2022-2023 o‘quv yilidan boshlab OTM tomonidan bilim va ta’lim sohalari negizida, ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarga mo‘ljallangan o‘quv qo‘llanma va darsliklarni nashrga tavsiya etish bo‘yicha komissiyalarini tuzish, o‘quv qo‘llanma va darsliklarni nashrga tavsiya etish tartibi ishlab chiqildi.

Har bir o‘quv yilining bиринчи va ikkinchi jarayon yakunlariga ko‘ra talaba yoshlar o‘rtasida ta’lim sifati bo‘yicha ikki marta (“o‘qituvchi talaba nigohida”) anonim so‘rovnomalar o‘tkazish joriy etildi.

Buxoro davlat universitetida mavjud barcha o‘quv xonalari video kuzatuv kameralari bilan jihozlangan va shu asosda o‘quv mashg‘ulotlarini sifatli tashkil etilishini darslarga xalal bermagan holatda ta’minalash va monitoring qilish universitet Rektorining 2021-yil 09 dekbardagi № 498-U-son buyrug‘i asosida tartibga solingan.

Darslarni sifatli tashkil etish hamda professor-o‘qituvchilarining dars jarayonlarini markazlashgan holda kuzatuv kameralari orqali kundalik nazorat qilib borish yo‘lga qo‘yilgan. bundan tashqari faoliyat samaradorligini baholash- KPI asosida institut professor-o‘qituvchilarining faoliyatini muntazam baholab borish va monitoring qilish tizimi yo‘lga qo‘yilgan.

Buxoro davlat universiteti Kengashining 2022-yil 01-apreldagi 8-son yig‘ilish qarori asosida universitetda ta’lim sifatini nazorat qilish maqsadida kafedralar kesimida dars tahlilini amalga oshirish bo‘yicha kafedralar “ekspert-mutaxassislar” tarkibi tasdiqlangan va har bir kafedrada dars tahlillari asosida ta’lim sifatini ta’minalash mexanizmlari yaratilgan.

### **Tashkiliy boshqaruvdagi mustaqillik sohasida**

Buxoro davlat universitetining 2022-yil 1-yanvardan shtat birliklari jadvali Buxoro davlat universiteti Kuzatuv kengashining 2022-yil 11-fevraldagи 1-sonli yig‘ilish bayoni 7-ilosiga muvofiq tasdiqlandi.

Buxoro davlat universiteti Kuzatuv kengashining 2022-yil 11-fevraldagи 1-sonli yig‘ilish bayoniga asosan 2022-yil uchun yangi tashkiliy tuzilmasi va shtatlar jadvali 2022-2023 o‘quv yilidan boshlab tasdiqlashga qaror qilindi.

Mehnat bozoridagi ehtiyojlar o‘rganib chiqildi va olingen ehtiyojlar taxlil qilinib, amaldagi ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari saqlab qolindi va Respublika bo‘yicha muhim bo‘lgan tarmoq va sohalarga kadrlar tayyorlashni kengaytirish maqsadida 2022-2023 o‘quv yili qabul kvotasiga yangi bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari (Raqamli iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha), Siyosatshunoslik, Menejment (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha), Inson resurslarini boshqarish, Tibbiyot fizikasi) hamda yangi magistratura mutaxassisliklari (Tasviriy va amaliy bezak san’ati, Raqamli iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) Menejment (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha), Agronomiya dehqonchilik, Sport faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha)) ochish yuzasidan takliflar ishlab chiqildi.

Universitetda pedagog xodimlarni ya’ni kafedra mudiri, professor, dotsent, katta o‘qituvchi, o‘qituvchi (assistent) va stajyor-o‘qituvchi lavozimlariga ishga qabul qilish 2020/2021 o‘quv yiliga

qadar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 10-fevraldagagi 20-son qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalariga pedagog xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida”gi nizomga asosan tanlov asosida ishga qabul qilingan. 2020/2021 o‘quv yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 3-dekabrdagi 967-son “Oliy ta’lim muassasalarini bosqichma-bosqich o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarorining 3 bandiga muvofiq pedagog xodimlar bilan mehnat shartnomasi bir o‘quv yiliga rasmiylashtirish tizimi joriy etilgan.

Mazkur jarayonni 2022/2023 o‘quv yili uchun tashkil qilish Buxoro davlat universiteti Kuzatuv kengashining 2022-yilning 4-son yig‘ilishida ko‘rib chiqish rejalashtirilgan.

### **Moliyaviy mustaqillik sohasida**

2022-yil boshidan hozirga qadar 19 nafar xorijlik o‘qituvchilar shartnomasi asosida universitetda faoliyat olib bormoqda O‘qituvchilarning 15 nafari onlayn rejimda, 4 nafari oflayn rejimda darslarni olib bormoqda. 2022-yil birinchi yanvardan aprel oyiga qadar 89 mln so‘mdan ortiq ish haqi xorijlik o‘qituvchilar uchun to‘lab berilgan.

PQ-60 son qarorida shtat birliklariga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish 2022/2023 o‘quv yildan deb belgilanganligi sababli, hozirgi kunda universitet ehtiyojidan kelib chiqib shtat birliklari belgilash bo‘yicha nizom ishlab chiqilmoqda. 2022-2023 o‘quv yildan tadbiq etish rejalashtirilgan.

Xorijiy davlatlardan o‘quv va ilmiy adabiyotlar, darsliklar hamda o‘quv qo‘llanmalar mualliflik huquqi bo‘lgan ishlab chiqaruvchilardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarid qilish rejalashtirilgan.

Universitetda bo‘s sh turgan bino va inshootlar Davlat mulkini ijara berish markazi orqali shartnomasi asosida ijara berilgan, shu bilan birga universitetda Tadbirkorlik markazi tashkil etilib turli xildagi pullik xizmat ko‘rsatish faoliyatlarini yo‘lga qo‘yish rejalashtirilgan.

Tarmoq korxonalari va asosiy ish beruvchilar, kadrlar buyurtmachilari bilan o‘zaro hamkorlik, bugungi kunda bozorga mos hamda bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari hamda magistratura mutaxassisliklariga bo‘lgan ehtiyojlar mavjudligi yuzasidan qabul kvotalarini shakllantirish uchun ehtiyojlar o‘rganildi. Jumladan, bakalavr ta’lim yo‘nalishlari kunduzgi ta’lim shakli 65 ta ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha 4700 dan ziyod, bakalavr sirtqi ta’lim shaklining 19 ta ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha 900 dan ziyod, bakalavr kechki ta’lim shaklining 15 ta ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha 450 dan ziyod, magistratura mutaxassisligining 40 ta yo‘nalishi bo‘yicha 695 dan ziyod ehtiyojlar borligi o‘rganildi. Ehtiyojlar yuzasidan bugungi kunda 2022/2023 o‘quv yili uchun qabul yo‘nalishlari va mutaxassisliklari rejalashtirilgan.

OTM mavqe’ini oshirish hamda brending ishlarini takomillashtirish maqsadida maqsadida universitet media-studiyasi tashkil etilmoqda. Ushbu maqsadda AQSH elchixonasining 15,6 ming AQSH dollarini hajmidagi grant mablag‘lari jalb etilgan.

Universitetda Oliy ta’limdan keyingi ta’lim instituti faoliyat ko‘rsatmoqda. 33 ta ixtisoslik bo‘yicha 140 nafar doktorant va tayanch doktorantlar hamda 196 nafar mustaqil izlanuvchilar faoliyat ko‘rsatadi. Doktorant va mustaqil izlanuvchilar uchun universitet Axborot resurs markazidan alohida zamонавиу texnikalalar bilan jihozlagan xona ajratilgan. Izlanuvchilar Scopus, Web of Science ma’lumotlar bazalarida chop etilgan maqolalari va doktorlik dissertatsiya himoyalari uchun doimiy ravishda moddiy rag‘batlantirib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori bilan Buxoro davlat universiteti huzurida fan doktori (DSc) va falsafa doktori (PhD) ilmiy darajalarini beruvchi 14 ta ixtisoslik bo‘yicha 8 ta Ilmiy kengashlar faoliyat olib bormoqda. 2021-yilda Kengashlarda jami 70 ta doktorlik dissertatsiyalari muvaffaqiyatlari himoya qilingan. Shundan, 42 nafari Buxoro davlat universiteti doktorant va mustaqil izlanuvchilari. 2022-yilda Kengashlarda jami 90 ta himoyalari rejalashtirilgan. 2022-yil 15-may holatida 21 ta doktorlik dissertatsiya himoyalari tashkil etildi. Kengashlar seminarlarida 41 nafar talabgorlarning doktorlik dissertatsiya ishlari muhokamadan o‘tkazilgan. 16 ta dissertatsiya ishlari ekspert va taqrizchilar tomonidan o‘rganilmoqda.

Buxoro davlat universiteti Kuzatuv kengashining 2022-yil 11-fevraldagagi 1-sonli yig‘ilish bayoniga 5-ilova bilan tasdiqlangan Buxoro davlat universiteti innovatsion jamg‘arma to‘g‘risida

nizomga asosan ixtiro hamda ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish bo'yicha tushumlar innovatsion jamg'armaga amalga oshiriladi. Buxoro davlat universiteti innovatsion jamg'arma to'g'risida nizomiga asosan Ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirishda ishtirot etgan muallif hamda ilmiy-ijodiy jamoa a'zolariga ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirishdan innovatsion jamg'arma hisobiga kelib tushgan mablag'larning tegishli qismi o'rnatilgan tartibda mukofot tarzida ajratilii belgilandi. Shuningdek, ushbu nizomda Ilmiy-innovatsion faoliyat orqali olingan daromad tarkibiy qismlari tafsiflandi.

Buxoro davlat universitetida Kuzatuv kengashi tashkil etildi. 2022-yil 11-fevralda Kuzatuv kengashining 1 yig'ilishi o'tkazildi. Yig'ilishda Kuzatuv kengashi reglamenti, Nizomi, Ish rejasি, BuxDu ustavi, Biznes rejasи, Avtotransport vositalaridan foydalanish tartibi to'g'risidagi Nizom, Buxoro davlat universiteti professor-o'qituvchilar, talabalar, ilmiy, o'quv-yordamchi, texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarga moddiy yordam ko'rsatish, moddiy rag'batlantirish hamda ustama ish haqi tayinlash uchun Maxsus jamg'arma mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizom, Buxoro davlat universitetining rivojlantirish jamg'armasi to'g'risidagi nizom, Buxoro davlat universiteti innovatsion jamg'arma to'g'risida nizomlar tasdiqlandi.

Joriy yilning o'zida universitetda HEMIS axborot tizimi va UNIWORK platformalari o'quv jarayoniga samarali tadbiq etib kelinmoqda. Talabalarning davomati, baholari, o'quv materiallari mazkur platformalarga shakllantirib borilmoqda. Bitiruvchi kurs talabalari HEMIS axborot tizimi orqali tegishli tartibda QR kodli diplom va ilovalarni olishlari yo'lga qo'yilgan.

UNIWORK platformasida ham yangi o'quv yilida o'quv jarayoniga tegishli barcha jarayonlarni qamrab olish rejalshtirilgan:

O'quv rejalarasi asosida o'qitiladigan fanlar va kafedralarning dars soat yuklamalarini shakllantirish;

Kafedra professor-o'qituvchilariga adolatli o'quv yuklamalarning taqsimotini amalga oshirish;

Dars jadvalini shakllantirish;

O'quv jarayonini samaralish boshlash;

Talabalikka tavsiya etilgan abituriyentlarning shartnomasi olishlari uchun shart-sharoitlarni yaratish.

**Kengash raisi O.X. Xamidov:** ushbu masala bo'yicha kimda qanday savol yoki takliflar bor, marhamat!

Ushbu masala bo'yicha kengash raisi O.X. Xamidov hamda a'zolari o'z fikr mulohazalarini bildirishdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi PQ 60 hamda PQ 61-son qarorlari bilan akademik, tashkiliy-boshqaruv va moliyaviy sohalarda Buxoro davlat universitetida amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi o'quv ishlari bo'yicha prorektor R.G'. Jumayev hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin;

- Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**
1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi PQ 60 hamda PQ 61-son qarorlari bilan akademik, tashkiliy-boshqaruv va moliyaviy sohalarda Buxoro davlat universitetida amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi o'quv ishlari bo'yicha prorektor R.G'. Jumayev hisoboti holati bo'yicha amalga oshirilgan ishlar qoniqarli deb hisoblansin;
  2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi PQ 60 hamda PQ 61-son qarorlari bilan akademik, tashkiliy-boshqaruv va moliyaviy sohalarda Buxoro davlat universitetida amalga oshirilgan ishlar bo'yicha o'quv ishlari bo'yicha prorektor R.G'. Jumayev hisoboti holati bo'yicha amalga oshirilgan ishlar qoniqarli deb hisoblansin;

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi PQ 60 hamda PQ 61-son qarorlari bilan akademik, tashkiliy-boshqaruv va moliyaviy sohalar bo'yicha fakultetlar va kafedralarda amalga oshirilayotgan ishlar muntazam ravishda tahlil qilib borilsin (mas'ullar: fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, nazorat: jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishslash, nazorat va monitoring bo'limi);

4. Yangi 2022/2023 o‘quv yiliga tayyorgarlik samarali tashkil qilish maqsadida barcha me’yoriy hujjatlarning tayyorlansin va tegishli tartibda rasmiylashtirilsin. HEMIS va UNIWORK platformalarida 2022/2023 o‘quv jarayoni belgilangan grafik asosida to‘liq shakllantirilsin. (mas’ullar: fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, nazorat: o‘quv-uslubiy boshqarma)

5. Mazkur qarolarning ijro nazorati o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor R.G.Jumayev zimmasiga yuklatilsin.

---

**2. Xorijiy tillar fakulteti professor-o‘qituvchilarining O‘zR Prezidentining 5117-soni qarorida nazarda tutilgan C1 darajasiga tenglashtirilgan xalqaro va milliy sertifikatlarga egalik holati to‘g’risida**

**ESHITILDI: N.B.Atabayev** (*Xorijiy tillar fakulteti dekani*) kengash a’zolariga Xorijiy tillar fakulteti professor-o‘qituvchilarining O‘zR Prezidentining 5117-soni qarorida nazarda tutilgan C1 darajasiga tenglashtirilgan xalqaro va milliy sertifikatlarga egalik holati to‘g’risida axborot berdi.

Buxoro davlat universitetida til sertifikatiga ega professor o‘qituvchilar, kafedralar kesimida quyidagicha ekanligi aniqlandi:

1. Ingliz tilshunosligi kafedrasida 33 ta professor o‘qituvchidan 28 tasida C1 darajasidagi til sertifikati mavjud (84 %)

2. Tarjimashunoslik va lingvovidaktika kafedrasida 25 ta professor o‘qituvchidan 16 tasida C1 darajasidagi til sertifikati mavjud (64 %)

3. Nemis va fransuz tillari kafedrasida 33 ta professor o‘qituvchidan 9 tasida C1 darajasidagi til sertifikati mavjud (27 %)

4. Ingliz adabiyoti va stilistika kafedrasida 24 ta professor o‘qituvchidan 13 tasida C1 darajasidagi til sertifikati mavjud (51 %)

5. Tabiiy yo‘nalishlarda chet tili kafedrasida 24 ta professor o‘qituvchidan 4 tasida C1 darajasidagi til sertifikati mavjud (16 %)

6. Gumanitar yo‘nalishlarda chet tili kafedrasida 28 ta professor o‘qituvchidan 3 tasida C1 darajasidagi til sertifikati mavjud (10 %)

7. Ingliz adabiyotshunosligi kafedrasida 16 ta professor o‘qituvchidan 15 tasida C1 darajasidagi til sertifikati mavjud (93 %)

Fakultet kesimida 183 nafar professor o‘qituvchidan 97 nafarida C1 darasajiga tenglashtirilgan til sertifikati bor (53 %)

16.05.2022 sanasida ushbu ko‘rsatkich fakultet kesimida 41 foiz edi. O’sish ko‘rsatkichi 12 foizni tashkil etmoqda!

Nemis va fransuz tillari kafedrasi, Tabiiy yo‘nalishlarda chet tili kafedrasi, Gumanitar yo‘nalishlarda chet tili kafedrasi kafedralarida ko‘rsatkichlar nisbatan past.

**Kengash raisi O.X. Xamidov:** ushbu masala bo‘yicha kimda qanday savol yoki takliflar bor, marhamat!

Ushbu masala bo‘yicha kengash raisi O.X. Xamidov hamda a’zolari o‘z fikr mulohazalarini bildirishdi. Xorijiy tillar fakulteti professor-o‘qituvchilarining O‘zR Prezidentining 5117-soni qarorida nazarda tutilgan C1 darajasiga tenglashtirilgan xalqaro va milliy sertifikatlarga egalik darajasi past ekanligi, bu muammoni zudlik bilan hal qilishga doir tegio‘li chora-tadbirlash belgilab olish kerakligi ta’kidlandi.

**Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, kengash qaror qiladi:**

1. Ingliz tilshunosligi, Ingliz adabiyotshunosligi, tarjimashunoslik va lingvovidaktika, ingliz adabiyoti va stilistika kafedralaridagi holat nisbatan ijobiy ekanligi; hamda Nemis va fransuz tillari, Tabiiy yo‘nalishlarda chet tili, Gumanitar yo‘nalishlarda chet tili kafedralarida esa salbiy ekanligi qayd etilsin.

2. Fakultetdagi 5117-sonli qarorida nazarda tutilgan C1 darajasiga tenglashtirilgan xalqaro va milliy sertifikatlarga egalik holati yuzasidan doimiy hisobot tayyorlash fakultet dekani N.B. Ataboyev zimmasiga yuklatilsin.

3. Kafedradagi holatni tanqidiy ko'rib chiqib, 1 oy muddatga qarorda qo'yilgan C1 darajasiga tenglashtirilgan xalqaro va milliy sertifikatlarga ega bo'lish shartini kafedra professor o'qituvchilarga yetkazish hamda Talabga javob bermaydigan o'qituvchilar bilan shartnomani bir tomonlama bekor qilinishini so'rab 10 kun ichida bildirishnomalarini rahbariyatga yetkazilish kafedra mudirlari zimmasiga yuklatilsin.

4. Xorijiy tillar fakultetida sog'lom raqobatni shakllantirish maqsadida C1 darajasiga tenglashtirilgan xalqaro va milliy sertifikatlarga ega bitiruvchi magistrlar ro'yxatini shakllantirish hamda yangi o'quv yili uchun ikki tomonlama shartnomalarini rasmiylashtirish choralarini ko'rish mas'ul kafedra mudirlari zimmasiga yuklatilsin.

---

#### **IV. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar yo'nalishi bo'yicha:**

**4. Universitetda davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida e'lon qilingan tanlovlarga taqdim etilgan loyihamo to'g'risida**

**ESHTILDI: O. Sayfulloyev** (*Ilmiy innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo'limi boshlig'i*) kengash a'zolariga universitetda davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida e'lon qilingan tanlovlarga taqdim etilgan loyihamo to'g'risida axborot berdi.

2022-yil may oyi holatida universitet professor-o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqilgan quyidagi loyihamo O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligiga hamda viloyat xokimligiga taqdim etildi:

- Rus tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, f.f.d. (DSc) L.X. Nigmatova rahbarligida umumiy qiymati 400,0 mln. so'm bo'lgan "Arxitektura-qurilish atamalarining o'zbekcha-ruscha, ruscha-o'zbekcha izohli elektron o'quv lug'atini yaratish" amaliy loyihasi Ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida amaliy hamda innovatsion loyihamo tanloving 27-47-turlariga;

- O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi, f.f.f.d. (PhD) N.S. Qodirova rahbarligida umumiy qiymati 693,6 mln. so'm bo'lgan "Buxoro adabiy muhiti ijodkorlarining ilmiy-adabiy me'rosi bo'yicha elektron platforma yaratish" amaliy loyihasi olma ayollarning tashabbuskor, amaliy va innovatsion loyihamo tanloviiga;

- Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrasi 2-bosqich tayanch doktoranti M.E. Axmatova rahbarligida umumiy qiymati 125,8 mln. so'm bo'lgan "Buxoro shahridagi tarixiy obidalarga sayohat qilishda transport xizmatlarining mobil ilovasini yaratish" amaliy loyihasi olma ayollarning tashabbuskor, amaliy va innovatsion loyihamo tanloviiga;

- Fizika kafedrasi dotsenti, t.f.n. I.I. Raxmatov rahbarligida umumiy qiymati 67,7 mln. so'm bo'lgan "Svetoforlarni muqobil energiya manbalaridan (quyosh energiyasi) foydalangan holda uzlusiz ishlashini ta'minlash" innovatsion loyihasi Bahorgi tijoratlashtirish forumi doirasida Buxoro viloyat hokimligiga;

- Juhon tarixi kafedrasi dotsenti, t.f.f.d. (PhD) B.N. Rizayev rahbarligida umumiy qiymati 189,7 mln. so'm bo'lgan "OTMlarda tahsil olayotgan ko'zi ojiz va ko'rishda nuqsoni bo'lgan talabalar uchun tarix fanlaridan mobil o'quv ilovasi yaratish" innovatsion loyihasi Bahorgi tijoratlashtirish forumi doirasida Buxoro viloyat hokimligiga taqdim etildi.

may oyi holatida:

-Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedrasi o'qituvchisi N. Ergashev rahbarligida ishlab chiqilgan umumiy qiymati 556,8 mln. so'm bo'lgan "Blokcheyn texnologiyasi dan foydalangan holda sun'iy intellektga asoslangan onlayn ta'lim uchun platforma ishlab chiqish" hamda Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedrasi o'qituvchisi F. Xazratov rahbarligida ishlab chiqilgan umumiy qiymati 796,7 mln. so'm bo'lgan "Turli xizmatlar portali" startap loyihalari moliyalashtirildi.

2022-yil may oyi holatida universitetda davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida ishlab turgan loyihalar mavjud emas. Bugungi kunda universitet professor-o‘qituvchilari tomonidan ishlab chiqilgan quyidagi loyihalar Innovatsion rivojlanish vazirligi hamda viloyat xokimligi tomonidan moliyalashtirish maqsadida ko‘rib chiqilmoqda.

1. Axborot texnologiyalari kafedrasi dotsenti, t.f.f.d. (PhD) X.I. Eshonqulov rahbarligida umumiy qiymati 723,0 mln. so‘mni tashkil etadigan “STEM yo‘nalishida arduino bazasiga asoslangan DIY (do it yourself) konstruktorlarini yaratish hamda ularni o‘qitish metodikasini ishlab chiqish” startap loyihasi moliyalashtirish masalasi vazirlilik Hay’ati yig‘ilishida ko‘rib chiqilishi rejalashtirilgan.

2. Differensial tenglamalar kafedrasi mudiri, f.m.f.f.d. (PhD) U. Durdiyev rahbarligida ishlab chiqilgan umumiy qiymati 770,0 mln. so‘mni tashkil etadigan “Matematika fanidan o‘zbek, qoraqalpoq, rus va ingliz tillaridagi izohli lug‘at onlayn-platformasini yaratish” innovatsion loyihasi vazirlilik Hay’ati yig‘ilishida ko‘rib chiqilib, ijobjiy xulosa berilgan.

3. Rus tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, f.f.d. (DSc) L.X. Nigmatova rahbarligi ishlab chiqilgan umumiy qiymati 400,0 mln. so‘m bo‘lgan “Arxitektura-qurilish atamalarining o‘zbekcha-ruscha, ruscha-o‘zbekcha izohli elektron o‘quv lug‘atini yaratish” amaliy loyihasi vazirlilik huzuridagi fan tarmog‘i bo‘yicha ilmiy-texnik kengash yig‘ilishida ko‘rib chiqilishi rejalashtirilgan.

4. O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi, f.f.f.d. (PhD) N.S. Qodirova rahbarligida ishlab chiqilgan umumiy qiymati 693,6 mln. so‘m bo‘lgan “Buxoro adabiy muhiti ijodkorlarining ilmiy-adabiy me’rosi bo‘yicha elektron platforma yaratish” amaliy loyihasi ilmiy ekspertiza jarayonida.

5. Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrasi 2-bosqich tayanch doktoranti M.E. Axmatova rahbarligida ishlab chiqilgan umumiy qiymati 125,8 mln. so‘m bo‘lgan “Buxoro shahridagi tarixiy obidalarga sayohat qilishda transport xizmatlarining mobil ilovasini yaratish” amaliy loyihasi dastlabki texnik ekspertiza jarayonida.

Fizika kafedrasi dotsenti, t.f.n. I.I. Raxmatov rahbarligida ishlab chiqilgan umumiy qiymati 67,7 mln. so‘m bo‘lgan “Svetoforlarni muqobil energiya manbalaridan (quyosh energiyasi) foydalangan holda uzlucksiz ishlashini ta‘minlash” innovatsion loyihasi Buxoro viloyat hokimligi tomonidan moliyalashtirish maqsadida ko‘rib chiqilmoqda;

Jahon tarixi kafedrasi dotsenti, t.f.f.d. (PhD) B.N. Rizayev rahbarligida ishlab chiqilgan, umumiy qiymati 189,7 mln. so‘m bo‘lgan “OTMlarda tahsil olayotgan ko‘zi ojiz va ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan talabalar uchun tarix fanlaridan mobil o‘quv ilovasi yaratish” innovatsion loyihasi Buxoro viloyat hokimligi tomonidan moliyalashtirish maqsadida ko‘rib chiqilmoqda.

Bugungi kunda universitet professor-o‘qituvchilari tomonidan ishlab chiqilgan quyidagi loyihalar tashabbuskor loyiha sifatida Innovatsion rivojlanish vazirligiga taqdim etish uchun tayyorlanmoqda.

1. Ingliz tilshunosligi kafedrasi mudiri, f.f.f.d. (PhD) Z. Rasulov rahbarligiga “Ko‘rish imkoniyati cheklanganlar hamda ko‘zi ojiz yoshlarga ingliz tilini integratsion yondashuv asosida o‘rgatish (tiflopedagogika) ga mo‘ljallangan platforma hamda mobil ilova yaratish” innovatsion loyihasi;

2. O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, f.f.d. (DSc) G. Toirova rahbarligida “Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish atamalari elektron izohli lug‘ati va halqaro ISO standartlarini davlat tiliga tarjima qilish integratsion platformasini yaratish” innovatsion loyihasi;

3. Organik va fizkolloid kimyo kafedrasi dotsenti, t.f.f.d. (PhD) F. Nuritdinova rahbarligida “Mahalliy Apis Mellifera jonsiz asalarisidan bioparchalanuvchi xitozan asosida tibbiyotda qo‘llaniladigan kompozitsion preparatlar olish texnologiyasini ishlab chiqish” amaliy loyihasi;

4. Jahon tarixi kafedrasi dotsenti, t.f.f.d. (PhD) B.N. Rizayev rahbarligida “Buxoro tarixiy markazining XVI asrdagi tarixiy-madaniy xaritasini yaratish” amaliy loyihasi.

**Kengash raisi O.X. Xamidov:** ushbu masala bo‘yicha kimda qanday savol yoki takliflar bor, marhamat!

Ushbu masala bo'yicha kengash a'zolari o'z fikr mulohazalarini bildirishdi.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**

1. Ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo'limi boshlig'i O.O. Sayfulloyevning ma'lumoti axborot uchun qabul qilinsin.

2. 2022-yil may oyi holatida universitetda davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida bajarilayotgan loyihalar mavjud emasligini qoniqarsin ekanligi qayd etilsin hamda barcha kafedralarda "Bir kafedra-bir loyiha" tamoyili asosida ilmiy-tadqiqot faoliyati yo'lga qo'yilsin (mas'ul: fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, IIITB boshlig'i, muddat: yil davomida).

3. Kafedralar huzurida tashkil etilgan ilmiy-tadqiqot markazlarida tegishli soha muammolari o'r ganilgan holda, tashabbuskor loyihalar ishlab chiqish tizimi yo'lga qo'yilsin (mas'ul: fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, IIITB boshlig'i, muddat: yil davomida).

4. Turli tanlovlarga taqdim etilayotgan hamda tashabbuskor loyihalar a'zolari tarkibining kamida 40 foizi talabalardan shakllantirilishi inobatga olinsin (mas'ul: loyiha rahbarlari, IIITB boshlig'i, muddat: yil davomida).

5. Loyihalarni tayyorlash hamda turli tanlovlarga taqdim etish va me'yoriy hujjatlarni rasmiylashtirish bo'yicha muntazam ravishda seminar-treninglar tashkil etilsin (mas'ul: IIITB boshlig'i, muddat: yil davomida).

6. Ushbu qaror ijrosining nazorati Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor A.T. Jo'rayev zimmasiga yuklatilsin.

## V. Tanlovlар.

### 5.1. BuxDU kafedra mudiri, professori, dotsenti, katta o'qituvchi va o'qituvchi lavozimlariga tanlovlar to'g'risida

**ESHITILDI: N.G.Dilova** (Kengash kotibi) - Bugungi kengashda belgilangan tartib asosida **36** nafar professor o'qituvchilarining ish hujjatlari o'r ganilib, tegishli kafedra bayonnomalari qarorlari asosida **18** nafar talabgorlar tanlovdan o'tishga tavsiya etildi. Ularning ro'yxati jadvalda keltirilgan

Buxoro davlat universiteti 2021-2022 o'quv yili 10- Kengash Tanlovda ishtirok etayotgan professor-o'qituvchilar ro'yxati 7.06 .2022y.				
1	Biologiya kafedrasи mudiri lavozimiga	Xoliyev Askar Ergashovich	Buxoronomma 8mart №19 2022y	Biologiya kafedrasi mudiri v.b., b.f.d., prof
		Jabborova Oysha Iskandarova		Buxoro DTI biologiya va gistologiya kafedrasi mudiri,b.f.n., dots
2	Maktabgacha ta'lim kafedrasi mudiri lavozimiga	Qo'ldoshev Rustambek Avezmurodovich	Buxoronomma 8mart №19 2022y	Maktabgacha ta'lim kafedrasi mudiri v.b., p.f.f.d., (PhD)
		Isroilova Ruxshona Sunnat qizi		Navoiy DPI Boshlang'ich ta'lim kafedrasi katta o'qituvchisi, p.f.f.d., (PhD)
3	O'zbek tilshunosligi kafedrasi professori lavozimiga	Kilichev Bayramali Ergashovich	Buxoronomma 8mart №19 2022y	O'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, f.f.n
		Zaripov Botir Pulatovich		Navoiy DPI o'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, f.f.n.
4	Iqtisodiyot kafedrasi dotsenti lavozimiga	Davlatov Suxrob Sayitjonovich	Buxoronomma 5mart №18 2022y	Iqtisodiyot kafedrasi katta o'qituvchisi
		Dilmonov Qudrat Baxtiyorovich		Turizm va mehmonxonalar xo'jaligi kafedrasi katta o'qituvchisi
5	Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyot kafedrasi dotsenti lavozimiga	Azimov Laziz Axrorovich	Buxariskiy vestnik 8-mart №19 2022y	Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrasi o'qituvchisi
		Axmedov Malik Barakayevich		Jismoniy madaniyat kafedrasi o'qituvchisi

6	Nemis va fransuz tillar kafedrasi dotsenti lavozimiga	Kuldasheva Navbaxor Bobokulovna	Buxoronomma 8mart №19 2022y	Nemis va fransuz tillari kafedrasi katta o'qituvchisi
		Shodiyeva Iroda Odilovna		Buxoro MTI Xorijiy tillar kafedrasi katta o'qituvchisi
7	Maktabgacha ta'lism kafedrasi katta o'qituvchisi lavozimiga	Rajabova Iroda Hamidovna	Buxoronomma 8mart №19 2022y	Maktabgacha ta'lism kafedrasi o'qituvchisi
		Ochilova Manzura Orziqulovna		Pedagogika kafedrasi o'qituvchisi
8	Ingliz adabiyoti va stilistika kafedrasi katta o'qituvchisi lavozimiga	To'xtayeva Farida Ismatullayevna	Buxoronomma 8mart №19 2022y	Ingliz adabiyoti va stilistika kafedrasi o'qituvchisi
		To'rayeva Xurshida Taxirovna		Pedagogika instituti "Xorijiy tillar" kafedrasi o'qituvchisi
9	Rus tili va adabiyoti kafedrasi katta o'qituvchi lavozimiga	Shermuhammedova Nasiba Almasovna	Buxoronomma 8mart №19 2022y	Rus tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi
		Sobirova Dilfuza Raximovna		Buxoro MTI akademik litseyi rus tili va adabiyoti fani o'qituvchisi
10	O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi lavozimiga	Hamidov Azimjon Hayotjon o'g'li	Buxoronomma 8mart №19 2022y	O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi
		Po'latova Sevara Maxmud qizi		O'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi
11	Maktabgacha ta'lism kafedrasi o'qituvchisi lavozimiga	Mamedova Maftuna Muhidinovna	Buxoronomma 5mart №18 2022y	Maktabgacha ta'lism kafedrasi o'qituvchisi
		Xayrulloyeva Dilnoza Nurmat qizi		Boshlang'ich ta'lism metodikasi kafedrasi o'qituvchisi
12	Ingliz tilshunosligi kafedrasida o'qituvchi lavozimiga	Qodirova Xolida Xayriddin qizi	Buxarskiy vesnik 8mart №19 2022y	Ingliz tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi
		Hotamova Maftuna Madatovna		Gumanitar yo'naliishlarda chet tili kafedrasida o'qituvchi
13	Iqtisodiyot kafedrasi o'qituvchisi lavozimiga	Odinay Nigina Furqatovna	Buxoronomma 8-mart №19 2022y	Iqtisodiyot kafedrasi o'qituvchisi
		Yuldashev Kamol Sharifovich		Turizm va mehmonxona xo`jaligi kafedrasi o'qituvchisi
14	Fizika kafedrasi o'qituvchisi lavozimiga	Muxammadova Dilafruz Axmatovna	Buxarskiy vesnik 8-mart. №19 2022y	Fizika kafedrasi o'qituvchisi
		Fayziyeva Zarifa Xikmatovna		Fizika kafedrasi o'qituvchisi
15	Psixologiya kafedrasi dotsent lavozimiga	Ro'ziyev Umar Muzafarovich	"Buxariskiy vestnik" 8-mart №19 2022y	Psixologiya kafedrasida katta o'qituvchi
		Baxriyeva Nargiza Axmadowna		Qarshi DU Psixologiya kafedrasi v.b. dotsenti.
16	Boshlang'ich ta'lism metodikasi kafedrasi o'qituvchi lavozimiga	Xalilova Feruza Mamatqulovna	Buxoronomma 5-mart. №18 2022y	Boshlang'ich ta'lism metodikasi kafedrasi o'qituvchi
		Gafarova Saida Muxamedjonovna		Biologiya kafedrasi o'qituvchisi
17	Gumanitar yo'naliishlarda chet tili kafedrasi o'qituvchisi lavozimiga	Safoyeva Sadoqat Nasrullayevna	Buxoronomma 5-mart. №18 2022y	Gumanitar yo'naliishlarda chet tili kafedrasi o'qituvchisi
		Ro'ziyeva Dilfuza Salinboyevna		Tabiiy yo'naliishlarda chet tili kafedrasi o'qituvchisi
18	Turizm va mexmonxona xo`jaligi kafedrasi o'qituvchi lavozimiga	Salimova Sarvinoz Fazliddin qizi	Buxoronomma 5-mart №18 2022y	Turizm va mexmonxona xo`jaligi kafedrasi o'qituvchisi
		Norov Bektosh Negmurod o'g'li		BuxDU qo'shma ta'lism dasturlarini muvoffiqlashtiruv chi bo'lim o'qituvchisi

Kengash raisi O.X.Xamidov mazkur lavozimga talabgorlarning nomzodliklarini universitetda joriy etilgan **buxduelektronanlov** tizimi orqali yashirin ovoz berish byulleteniga kiritish taklifini ovozga qo‘ydi. Kengash a’zolari ushbu taklifni bir ovozdan qo‘llab-quvvatlashdi.

Kengash a’zolari tomonidan 3 kishidan iborat sanoq komissiyasi saylandi. Yig‘ilishda ishtirok etgan 70 nafar kengash a’zolari tomonidan **buxduelektronanlov** tizimi byulleteniga kiritilgan nomzodlarga yashirin elektron ovoz berildi.

Kengash raisi O.X.Xamidov yashirin ovoz berish natijalarini tasdiqlash uchun ovozga qo‘ydi.

Rozilar - 70 nafar

Qarshilar - yo‘q

Betaraflar - yo‘q

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**

1. Kengash kotibi N. Dilovaning kafedra mudiri, professori, dotsenti, katta o‘qituvchi va o‘qituvchi lavozimlariga tanlovlari to‘g‘risida bergan axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.
  2. Yuqorida tanlovdan o‘tgan talabgorlarning 5 yil muddatda kafedra dotsenti, katta o‘qituvchi va o‘qituvchi lavozimlariga saylanganligi ta’kidlansin.
  3. Mazkur qarorning ijo nazorati universitet kengashi kotibi N.G. Dilova zimmasiga yuklatilsin.
- 

## **5.2. BuxDUning PI kafedra mudiri, dotsent, katta o‘qituvchi va o‘qituvchi lavozimlariga tanlovlari to‘g‘risida**

**ESHITILDI: N.G.Dilova** (Kengash kotibi) - Bugungi kengashda belgilangan tartib asosida **24** nafar professor o‘qituvchilarning ish hujjatlari o‘rganilib, tegishli kafedra bayonnomalari qarorlari asosida **12** nafar talabgorlar tanlovdan o‘tishga tavsiya etildi. Ularning ro‘yxati jadvalda keltirilgan

1.	Harbiy ta’lim fakulteti dotsenti	Safoyev Husen Aminovich	Buxoronomha 6.04.2022 № 26	Harbiy ta’lim fakulteti katta o‘qituvchisi
		Valiyev Abdurafik Abduganiyevich		Harbiy ta’lim fakulteti o‘qituvchisi
2.	Xorijiy tillar kafedrasi katta o‘qituvchisi	To‘rayeva Xurshida Tohirovsna	Buxarskiy vestnik 30.03.2022 № 24	“Xorijiy tillar” kafedrasi o‘qituvchisi
		To‘xtayeva Farida Ismatullayevna		BuxDU “Ingliz adabiyoti va stilistikasi” kafedrasi o‘qituvchisi
3.	O‘zbek va rus tillari kafedrasi katta o‘qituvchisi	Boltayeva Mahbuba Sharipovna	Buxarskiy vestnik 30.03.2022 № 24	“O‘zbek va rus tillari” kafedrasi o‘qituvchisi
		Ubaydova Dilrabo Askarovna		“O‘zbek va rus tillari” kafedrasi o‘qituvchisi
4.	Ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi	Murtazoyev Shahobiddin Baxriddinovich	Buxarskiy vestnik 30.03.2022 № 24	“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi
		Bozorova Ro‘zigul Sharofovna		Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti
5.	O‘zbek va rus tillari kafedrasi o‘qituvchisi	Ergasheva Dilfuza Kamilovna	Buxarskiy vestnik 06.04.2022 № 26	“O‘zbek va rus tillari” kafedrasi o‘qituvchisi
		Sharipova Malohat Hojikurbanovna		Buxoro shahar 23-maktab rus tili o‘qituvchisi

6.	Xorijiy tillar kafedrasi o'qituvchisi	Po'latova Sabina Sharifovna	Buxoronom a 8.03.2022 № 19	"Xorijiy tillar" kafedrasi o'qituvchisi
		Xaydarova Nigina Ganiyevna		BuxDU "Gumanitar yo'naliishlarda chet tillar" kafedrasi o'qituvchisi
7.	Ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi	Kenjayev Sardor Nurmurod o'g'li	Buxoronom a 8.03.2022 № 19	"Ijtimoiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi.
		Karimov Bahrom Djalolovich		Qarshi DU "O'zbekiston tarixi" kafedrasi o'qituvchisi
8.	Aniq fanlar kafedrasi o'qituvchisi	Rajabova Gulchexra Salomovna	Buxoronom a 8.03.2022 № 19	Aniq fanlar kafedrasi o'qituvchisi
		Jalilov Jahongir Jabborovich		G'ijduvon tumani 22-maktab o'qituvchisi
9	"Maktabgacha ta'lism" kafedrasi katta o'qituvchisi	Ro'ziyeva Sadoqat Hasanovna	Buxoronom a 16.04.2022 № 29	"Maktabgacha ta'lism" kafedrasi o'qituvchisi
		Abdurahmonova Muxabbat Obloqulovna		G'ijduvon tumani 17-maktab o'qituvchisi
10	"Boshlang'ich ta'lism nazariyasi va metodikasi" kafedrasi dotsenti	Adizova Nodira Baxtiyorovna	Buxoronom a 16.04.2022 № 29	"Boshlang'ich ta'lism nazariyasi va metodikasi" kafedrasi dotsenti
		G'afurov Baxtiyor Zokirovich		BTI "Pedagogika, psixologiya va tillar" kafedrasi o'qituvchisi
11	"Boshlang'ich ta'lism nazariyasi va metodikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi	Saidova Gavhar Ergashovna	Buxoronom a 16.04.2022 № 29	"Boshlang'ich ta'lism nazariyasi va metodikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi
		Sayfullayeva Nozima Baxodirovna		BuxDU "Boshlang'ich ta'lism nazariyasi" kafedrasi o'qituvchisi
12	"Tabiiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi	Jamolova Nodirabegim Jobir qizi	Buxoronom a 02.03.2022 № 17	"Tabiiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi
		Ortiqov Sherzod Sharof o'g'li		BuxDU "Umumiyl va organik kimyo" kafedrasi o'qituvchisi

Kengash raisi O.X.Xamidov mazkur lavozimga talabgorlarning nomzodliklarini universitetda joriy etilgan **buxduelektronanlov** tizimi orqali yashirin ovoz berish byulleteniga kiritish taklifini ovozga qo'ydi. Kengash a'zolari ushbu taklifni bir ovozdan qo'llab-quvvatlashdi.

Kengash a'zolari tomonidan 3 kishidan iborat sanoq komissiyasi saylandi. Yig'ilishda ishtirok etgan 70 nafar kengash a'zolari tomonidan **buxduelektronanlov** tizimi byulleteniga kiritilgan nomzodlarga yashirin elektron ovoz berildi.

Kengash raisi O.X.Xamidov yashirin ovoz berish natijalarini tasdiqlash uchun ovozga qo'ydi.

Rozilar - 70 nafar

Qarshilar - yo'q

Betaraflar - yo'q

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**

1. Kengash kotibi N. Dilovaning BuxDU ning Pedagogika instituti kafedra dotsenti, katta o'qituvchi va o'qituvchi lavozimlariga tanlovlari to'g'risida bergan axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Yuqorida tanlovdan o'tgan talabgorlarning 5 yil muddatda kafedra professori, dotsenti, katta o'qituvchi va o'qituvchi lavozimlariga saylanganligi ta'kidlansin.
3. Mazkur qarorning ijro nazorati universitet kengashi kotibi N.G. Dilova va BuxDU ning Pedagogika instituti kengash kotibi F. Nurova zimmasiga yuklatilsin.

## VI. Turli masalalar.

**6.1. Universitetning pedagog xodimlari tomonidan tayyorlangan o'quv qo'llanmalarni vazirlik grifini olishga tavsiya berish to'g'risida.**

**ESHITILDI: R.G'.Jumayev** (O'quv-ishlari bo'yicha prorektor) Universitetning pedagog xodimlari tomonidan tayyorlangan o'quv qo'llanmalarni vazirlik grifini olishga tavsiya berish to'g'risida quyidagi axborotni berdi. Universitetning Kengashida quyidagi professor o'qituvchilarning o'quv qo'llanma va darsliklarini tasdiqlab berishingizni so'rayman.

Mualliflarning F.I.Sh	Ixtisoslik shifri va nomi	Adabiyot nomi	Adabiyot turi	Kafedra
B.B. Umarov, Q.G'. Avezov, M.A. Tursunov va S.F. Abdurahmonov	51140500-Kimyo ta'limi	Органическая химия	Darslik	Organik va fizkolloid kimyo
Sh.M. Imomova	60530400-Geografiya	Geografiyada axborot kommunikatsion	Darslik	Amaliy matematika va dasturlash
S.S. Raupov	5520100-Ijtimoiy ish	Ijtimoiy siyosat	Darslik	Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq
O.R. Avezov va Z.J. Axmedova	70310901-Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha)	Ekstremal vaziyatlar psixologiyasi	Darslik	Psixologiya
Z.Q. Qodirova, G.Q. Xolikova, M.M. Amonov	5140500-Kimyo	Bioorganik kimyo	Darslik	Organik va fizkolloid kimyo
J.Sh. Ostonov	60110800-Kimyo va 60110900-Biologiya	Umumiy psixologiya	Darslik	Psixologiya
U.D. Qodirov va U.S. Jumayev	5210205-Psixologiya (yoshlar psixologiyasi)	Kasb psixologiyasi	Darslik	Psixologiya
U.D. Qodirov va U.S. Jumayev	5210200-Psixologiya (sport)	Sport psixodiag nostikasi va psixokorreksiya	Darslik	Psixologiya
I.H. Rajabova	5111800-Maktabgacha ta'lim	Tabiat bilan tanish tirish nazariyasi va texnologiyalari	Darslik	Maktabgacha ta'lim
H.Yu. Salomova	5230100-Iqtisodiyot	Ekologiya va yashil iqtisodiyot	O'quv qo'llanma	Islom tarixi va manbashunosligi. Falsafa
F.M. Nuritdinova, D.A. Hazratova va D.M. Tillayeva	60530100-Kimyo	Основы синтезов органических соединений	O'quv qo'llanma	Organik va fizkolloid kimyo
A.H. Hamroyev va M. Rahmonova	5120300- Tarix (jahon mamlakatlari)	Rossiyaning Buxoro va Xiva bilan aloqalari (Oxirgi uch yuz yillikda)	Risola	Jahon tarixi
Sh.N. Saidova va A.A. Ikramova	Nofilologik yo'nalish	English	O'quv qo'llanma	Gumanitar yo'nalishlarda chet tili
O.N. Shomurodov	5110800-Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi	Haykaltaroshlik	O'quv qo'llanma	Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi
S.A. Qodirova	5111700-Boshlang'ich ta'lim va sport ishlari	Ona tili o'qitish metodikasi (Nutq o'stirish metodikasi)	O'quv qo'llanma	Boshlang'ich ta'lim metodikasi
F.X. Bobojonova	5120300-Tarix. Buxoro tarixi	Buxoro me'moriy obidalari tarixi	O'quv qo'llanma	Buxoro tarixi

X.F. Hasanova	5140100-Biologiya, 5410100-Agrokimyo va agrotuproqshunoslik	English For Biology Student	O'quv qo'llanma	Tabiiy yo'nalishlarda chet tili
Q.S. Saidov va M.B. Bekmurodov	30530900-Fizika	Nazariy mexanika qisqa kursi	O'quv qo'llanma	Fizika
Z.A. Sulaymonova, D.A. Hazratova va S.A. Karomatov	5140500-Kimyo	Kolloid kimyo	O'quv qo'llanma	Organik va fizkolloid kimyo
F.M. Nuritdinova, O.A. Saidov va S.A. To'xtayeva	5140500-Kimyo	Neft va gaz kimyosidan labaratoriya mashg'ulotlari	O'quv qo'llanma	Organik va fizkolloid kimyo
S.M. Nazarova	60810700-Agrokimyo va agrotuproqshunoslik	Tuproq fizikasi	O'quv qo'llanma	Tuproqshunoslik
A.A. Ilyosov va J.J. Jumayev	60810700-Agrokimyo va agrotuproqshunoslik	Dehqonchilik	O'quv qo'llanma	Tuproqshunoslik
N.I. Adizova	5120101-Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili	Og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish	O'quv qo'llanma	O'zbek tilshunosligi
M.R. Amonov, H.Q. Razzoqov va N.I. Nazarov	5140500-Kimyo	Bo'yoqlar kimyosi	O'quv qo'llanma	Umumiyyat va noorganik kimyo
Sh.O. Alimova, K.Sh. Yuldashev va S.F. Halimova	61010400-Turizm, 5611500-Gid hamrohligi va tarjima nazariyasi	Ekskursiya xizmatlarini tashkil etish fanidan	Lug'at	Turizm va mehmoxona xo'jaligi
F.T. Qobilova	5120300-Tarix (mamlakatlar va yunalishlar bo'yicha)	English-Uzbek dictionary of spiritual terms	Lug'at	Gumanitar yo'nalishlarda chet tili

Ushbu masala bo'yicha kengash a'zolari o'z fikr-mulohazalarini bildirishdi. Muhokama so'ngida universitet rektori, kengash raisi O.Xamidov yuqorida nomlari keltirilgan mualliflarning darslik va o'quv qo'llanmalarini tasdiqlash uchun ovozga qo'ydi.

Rozilar - 70 nafar

Qarshilar - yo'q

Betaraflar - yo'q

Nomlari keltirilgan darslik va o'quv qo'llanmalar vazirlik grifini olish uchun Oliy va o'rta maxsus ta'limga vazirligi huzuridagi oliy va professional ta'limga yo'nalishlari bo'yicha o'quv uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash muhokamasiga tavsiya etish uchun bir ovozdan tasdiqlanishini inobatga olib,

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**

1. O'quv-ishlari bo'yicha prorektor R.G'.Jumayevning universitet pedagog xodimlari tomonidan tayyorlangan darslik va o'quv qo'llanmalarini vazirlik grifini olishga tavsiya berish to'g'risida axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Mualliflari jadvalda keltirilgan professor o'qituvchilarning o'quv qo'llanmalari va darsliklari Oliy va o'rta maxsus ta'limga vazirligi huzuridagi oliy va professional ta'limga yo'nalishlari bo'yicha o'quv uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash muhokamasiga tavsiya etilsin.
3. Mazkur qaror ijro nazorati O'quv-ishlari bo'yicha prorektor R.G'.Jumayev zimmasiga yuklatilsin.

---

**6.2. Moliyaviy, akademik va tashkiliy-boshqaruv sohasida mustaqillik berish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari ijrosidan kelib chiqib, TARTIBLARni tasdiqlash to'g'risida.**

**ESHITILDI: R.Jumayev** (*O'quv ishlari bo'yicha prorektor*) kengash a'zolariga Moliyaviy, akademik va tashkiliy-boshqaruv sohasida mustaqillik berish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari ijrosidan kelib chiqib, TARTIBLARni tasdiqlash to'g'risida ma'lumot berdi.

Bizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi "Davlat oliv ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarori ижросини таъминлаш мақсадида университетимизда

**a) akademik mustaqillik sohasida:**

o'quv rejalar, o'quv dasturlari, malaka talablarini kasbiy standartlar asosida tasdiqlash, ta'lim tilini hamda ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim olish shaklini belgilash;

bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun o'qish davomiyligi muddatlarini belgilash;

doktoranturada to'lov-kontrakt asosida o'qish qiymatini belgilash, budgetdan tashqari mablag'lar hisobidan grant ajratish orqali doktoranturaga tanlov asosida kvotaga qo'shimcha ravishda qabul qilish;

doktorant va mustaqil izlanuvchilarga ilmiy rahbarlik qilish tartibini tasdiqlash;

magistratura bosqichida ta'limning sirtqi, masofaviy va kechki shakllarini joriy etish, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar bo'yicha qo'sh malakalar, shu jumladan amaliy malakalar berish tizimini joriy qilish;

o'zaro kelishuvlar asosida oliv ta'lim muassasalari bilan akademik mobillikni amalga oshirish;

oliv ta'lim muassasasi va uning tuzilmasidagi ta'lim muassasalari uchun o'z grifi asosida darsliklar hamda boshqa o'quv va ilmiy adabiyotlarni yaratish va nashr etish;

ta'lim sifatini ichki nazorat qilish mexanizmlarini belgilash va joriy etish;

**b) tashkiliy-boshqaruvdagi mustaqillik sohasida:**

faoliyatining asosiy yo'nalishi ta'lim, ilm-fan, uning natijalarini joriy etish hamda tijoratlashtirish bilan bog'liq bo'lgan, davlat budgeti mablag'ları hisobidan moliyalashtirilmaydigan tarkibiy tuzilmalar, tijorat va notijorat tashkilotlarni tashkil etish;

oliv ta'lim muassasalari uchun belgilangan normativlardan qat'i nazar muassasaning tuzilmasini tasdiqlash va shtat birliklari sonini belgilash;

mehnat bozoridagi ehtiyojdan kelib chiqib, yangi ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarni ochish, amaldagi ta'lim yo'nalishlari hamda mutaxassisliklarni tugatish;

pedagog va boshqa xodimlarni ishga qabul qilish, ishdan ozod etish va ichki rotatsiyasiga oid **tartibni belgilash**;

xorijiy davlat fuqarolarini to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish va masofaviy ta'lim olish shaklida o'qitishni tashkil etish.

Belgilansinki, ushbu bandda nazarda tutilgan vakolatlar oliv ta'lim muassasalari tomonidan qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

2. Vazirlar Mahkamasining quyidagi takliflariga rozilik berilsin:

a) Vazirlar Mahkamasi, vazirlik (idora)larning quyidagi vakolatlarini ta'lim muassasalariga o'tkazish:

chet el fuqarolarining o'qishini xorijiy oliv ta'lim muassasalaridan respublika davlat oliv ta'lim muassasalariga ko'chirish;

oliv ta'lim muassasasi qabul komissiyasi raisi va mas'ul kotibini, shuningdek, oliv ta'lim muassasasi tomonidan o'tkaziladigan imtihonlar bo'yicha qabul komissiyasi raisi va a'zolari, imtihonlar jadvali, imtihon olinadigan fanlar dasturlari va baholash mezonlarini tasdiqlash;

oliv, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning **amaliyotni o'tash tartibini tasdiqlash** va uni tashkil etish;

oliv, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarida ichki tartib qoidalari, jumladan ta'lim oluvchilarning kiyim-boshiga doir talablarni belgilash.

b) Vazirlar Mahkamasining olivy, o‘rta maxsus va professional ta’lim sohasidagi quyidagi vakolatlarini Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligiga o‘tkazish:

oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan ta’lim yo‘nalishlari, mutaxassisliklar va kasblar ro‘yxatini tasdiqlash;

bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha o‘qish davomiyligining eng kam muddatlarini belgilash;

kechki, sirtqi va masofaviy ta’lim shakli joriy etilmaydigan bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini belgilash;

darsliklar, o‘quv va ilmiy adabiyotlarni tayyorlash, nashr etish **tartibini**, shuningdek, ularni yetkazib berishga va ulardan ta’lim tashkilotlarida foydalanishga qo‘yiladigan talablarni belgilash;

ta’lim muassasalariga nisbatan moddiy-texnik, infratuzilmaviy va parametrik talablarni belgilash;

v) ilmiy kengash a’zolarining yarmidan ko‘pi mazkur kengashni tuzgan ta’lim muassasasi (ilmiy tashkilot)da faoliyat yurituvchi olimlardan iborat bo‘lishi haqidagi talabni bekor qilish

**Kengash raisi O.X. Xamidov:** ushbu masala bo‘yicha kimda qanday savol yoki takliflar bor, marhamat!

Ushbu masala bo‘yicha kengash raisi O.X. Xamidov hamda a’zolari o‘z fikr mulohazalarini bildirishdi. Universitetda moliyaviy, akademik va tashkiliy-boshqaruv sohasida mustaqillik berish ishlab chiqilgan TARTIBLARni tasdiqlab berishni kengash a’zolaridan so‘raldi.

Rozilar - 70 nafar

Qarshilar - yo‘q

Betaraflar - yo‘q

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi**:

1. O‘quv-ishlari bo‘yicha prorektor R.G‘.Jumayevning universitet pedagog xodimlari tomonidan tayyorlangan darslik va o‘quv qo‘llanmalarini vazirlig grifini olishga tavsiya berish to‘g‘risida axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. Mualliflari jadvalda keltirilgan professor o‘qituvchilarning o‘quv qo‘llanmalari va darsliklari Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi olivy va professional ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash muhokamasiga tavsiya etilsin.
3. Mazkur qaror ijro nazorati O‘quv-ishlari bo‘yicha prorektor R.G‘.Jumayev zimmasiga yuklatilsin.

---

### **6.3. Universitet ta’lim, ilmiy, tashkiliy-boshqaruv va boshqa faoliyatlariga xorijiy mutaxassis va vatandoshlarni jalb qilish, 2022-yilda jalb qilinishi rejalashtirilgan professor-o‘qituvchilar ro‘yxatini tasdiqlash bo‘yicha.**

**ESHITILDI: Xalqaro hamkorlik bo‘limi boshlig‘i M.H.Qilichov:** 2021-yilda Buxoro davlat universitetida **44 nafar xorijlik** professor-o‘qituvchi ta’lim faoliyatini olib bordi. Pandemiya tufayli ularning faqatgina bir necha nafari an‘anaviy shaklda dars bergan bo‘lsa, aksariyati bilan onlayn shaklda dars berish bo‘yicha mehnat shartnomasi imzolandi. Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi, AQShning Fulbrayt dasturi, shuningdek qo‘shma ta’lim dasturlari doirasida ma’ruza o‘qigan professor-o‘qituvchilardan tashqari, 35 nafardan ortiq xorijlik o‘qituvchilar uchun soatbay ish haqi BuxDU byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan **har bir soat uchun 10-15 dollar** atrofida belgilandi. Taklif qilingan xorijlik o‘qituvchilarning barchasi jahon akademik reytinglarida **yuqori 1000 talikka kiruvchi OTMlardan** bo‘lishi ta’mindan. Ular qatorida Vatel mehmonxonasi va turizm biznes maktabi (Fransiya), Sasseks universiteti (Angliya), Myunster universiteti (Germaniya), Moskva davlat universiteti, Qozon federal universiteti (Rossiya) kabilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin. **Jami 2,5 ming soatga yaqin** dars xorijlik professor-o‘qituvchilar tomonidan o‘tildi.

2021-2022 o‘quv yiliда 01.02.2022 yil holatida 16 nafar professor-o‘qituvchi dars jarayonlarida ishtirok etmoqda. Yil oxirigacha ularning soni **60 nafarga** etkazilishi rejalashtirilgan.

Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedrasи i tomonidan 2021-2022-o‘quv yilda dars berish maqsadida Moskva elektron texnika institutidan 1-jadvalga muvofiq o‘qituvchi jalg qilinishi rejalashtirilgan.

1-jadval

**2021-2022- o‘quv yilida dars berish jarayoniga jalg qilinishi rejalashtirilgan  
professor-o‘qituvchilar ro‘yxati**

<b>Nº</b>	<b>Taklif etilayotgan xorijiy professor-o‘qituvchining F.I.Sh.</b>	<b>Ish joyi va lavozimi, ilmiy unvoni</b>	<b>2021 yilgi jahon reytinglarida gi o‘rni</b>	<b>Qaysi kafedrada dars beradi.</b>	<b>Qaysi fandan dars beradi (ingлиз va rus tillarida)</b>	<b>Dars soatlari</b>	<b>Kelishuv asosida to‘lanadigan dars soatlari ish haqqi, AQSh dollarida</b>
1	Garashenko Anton Vitalevich	Moskva elektron texnika instituti, PhD	Moskva elektron texnika institutidan	Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari	Veb ilovalarini yaratish texnologiyalari	20	300

**Kengash raisi O.X. Xamidov:** ushbu masala bo‘yicha kimda qanday savol yoki takliflar bor, marhamat!

Ushbu masala bo‘yicha kengash raisi O.X. Xamidov hamda a’zolari o‘z fikr mulohazalarini bildirishdi. Universitet ta’lim, ilmiy, tashkiliy-boshqaruv va boshqa faoliyatlariga xorijiy mutaxassis va vatandoshlarni jalg qilish, 2022-yilda jalg qilinishi rejalashtirilgan professor-o‘qituvchilar ro‘yxatini tasdiqlab berishni kengash a’zolaridan so‘raldi.

Rozilar - 70 nafar

Qarshilar - yo‘q

Betaraflar - yo‘q

**Kun tartibidagi masala yuzasidan kengash qaror qiladi:**

1. BuxDU xalqaro hamkorlik bo‘limi boshlig‘i M.H. Qilichovning ma’lumoti axborot uchun qabul qilinsin.

2. Xorijlik mutaxassis va vatandoshlarning ta’lim, ilm-fan, tashkiliy-boshqaruv jarayonlariga jalg etilishi universitetda ta’lim va boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish nuqtai nazaridan maqsadga muvofiq ekanligi ta’kidlansin.

3. Universitetga taklif etiluvchi xorijlik mutaxassis va vatandoshlarning yuqori malakali bo‘lishi shartligi ta’kidlab o‘tilsin. Ularga to‘lanadigan ish haqi ish haqi soatbay, ishbay yoki lavozim hissasi asosida o‘zaro kelishiladigan valyutada, O‘zbekiston qonunchiligidagi belgilangan soliq va to‘lovlar to‘langanidan so‘ng, to‘g‘ridan-to‘g‘ri naqd ko‘rinishda yoki pul ko‘chirish orqali mutaxassisining xorijda yoki O‘zbekistonda ochilgan bank hisobraqamiga (plastik kartasiga) o‘tkazib berilishiga ruxsat berilsin. Ish haqqi universitet kengashining 2021/2022 o‘quv yili 7-son yig‘ilish bayoni asosida hisoblansin.

4. Professor-o‘qituvchining kunlik, sutkalik, ikki tomonga aviachiptalarni sotib olish xarajatlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 20.04.2017 yildagi PQ-2909-son asosida qoplansin.

5. 1-jadvalda taqdim etilgan, dars berish maqsadida taklif etilishi belgilangan professor-o‘qituvchilarga dars o‘tishi uchun ruxsat berilsin. Darslarni o‘z vaqtida tashkil etish va olib borish vazifasi fakultet o‘quv ishlari bo‘yicha dekan muovinlari va kafedra mudiriga yuklansin.

6. Ushbu qaror ijrosi Moliya va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor va Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor zimmasiga yuklansin.

**6.4. Germaniya Federativ Respublikasiga Work and travel, stajirovka, amaliyot dasturlari bo'yicha safarga ketayotgan talaba va o'qituvchilar faoliyati, o'qishini muvofiqlashtirish to'g'risida**

**ESHITILDI: Xalqaro hamkorlik bo'limi boshlig'i M.H.Qilichov:** Bugungi kunda talaba va professor o'qituvchilar xorijning bir qator mamlakatlarida yozgi maktab, work and travel, qisqa muddatli stajirovka doirasida safarlarni amalga oshirmoqda hamda rejalashtirmoqda.

2022-o'quv yilida bugungi davriga qadar 17 nafar talabalarni turli seminarlar doirasida stajirovka, almashinuv dasturlari doirasida safarlari amalga oshirilgan. Shuningdek, 4 nafar talabani Fransiyaga yuborish rejalashtirilgan.

Bugungi kunda 30 nafar talabalar tomonidan Work and Travel dasturi doirasida Germaniya Federativ Republikasida iyun, iyul, avgust oylarida kasbiy mahorat olibb borish, malaka oshirish, stajirovka o'tash doirasida murojaat qilgan. Ushbu murojaatlar kelgusida ko'payishini inobatga olgan holda talabalarning o'qish, amaliyot, imtihon vaqtlanini muvofiqlashtirish maqsadga muvofiq deb bilamiz.

Talabalar barcha fakultetlardan mavjud bo'lib, ularning safari davomida aloqada bo'lib turish, olib borayotgan faoliyatini doimiy nazarat qilib turish, o'rganish belgilangan tartibda dekanat (dekan, mudir, kurator, tutor) tomonidan nazarat qilinishi, o'qish jarayonlarini tartibga solish, fanlardan qarzdorlikni o'zlashtirishni topshirishni belgilangan tartibda o'quv bo'limi muvofiqlashtirishi maqsadga muvofiq.

Shuningdek, safardan oldin talabalarga xorijda bo'lish va qaytgandan so'ng hisobotlarni xalqaro bo'limga topshirish bo'yicha yo'riqnomalarni berish xalqaro hamkorlik bo'limi muvofiqlashtirishi maqsadga muvofiq.

**Kengash raisi O.X. Xamidov:** ushbu masala bo'yicha kimda qanday savol yoki takliflar bor, marhamat!

Ushbu masala bo'yicha kengash raisi O.X. Xamidov hamda a'zolari o'z fikr mulohazalarini bildirishdi. Universitetda moliyaviy, akademik va tashkiliy-boshqaruv sohasida mustaqillik berish ishlab chiqilgan TARTIBLARni tasdiqlab berishni kengash a'zolaridan so'raldi.

Rozilar - 70 naftar

Qarshilar - yo'q

Betaraflar - yo'q

#### **Kun tartibidagi masala yuzasidan Kengash qaror qiladi:**

1. BuxDU xalqaro hamkorlik bo'limi boshlig'i M.H.Qilichovning ma'lumoti axborot uchun qabul qilinsin.

2. Xorijga tahsil olish, almashinuv dasturlarida qatnashish, malaka oshirish, yozgi maktablarda o'qish, work and travel dasturida ishtirok etuvchi talabalarning safarlarini amalga oshirishga belgilangan tartibda (arizasi, tashrif dasturi, taklifnomalar, vizasini ko'rsatgan holda) murojaat qilgan holda ruxsat berilsin.

3. Safardan qaytgandan so'ng bir oy muddatda fanlardan va amaliyotdan qarzdorlikni o'zlashtirish uchun muddat belgilansin va ushbu jarayonni tashkil etish dekanatlar bilan kelishgan holda o'quv O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i zimmasiga yuklansin.

4. Safarni amalga oshirishdan oldin belgilangan tartibda talaba va o'qituvchilarga yo'riqnomalar va tushuntirish olib borish xalqaro hamkorlik bo'limi boshlig'iga yuklansin va viza masalarida belgilangan tartibda uslubiy yordam ko'rsatilsin.

5. Dekanatlar ogohlantirishsiz safarga ketgan talabalar haqida xabar topganda ular bilan aloqa o'rnatib, yuqoridaq maqsadlar asosida safarga ketganligi aniqlangan holatda yozma ravishda xalqaro bo'lim va o'quv uslubiy boshqarmaga ma'lumot taqdim etsin.

6. Talaba va o'qituvchilar safardaligi davomida ulardan xabar olish, o'qish, stajirovka, kasbiy mahorat, amaliyot to'g'risida hamkorlik va aloqa qilib, xabardor bo'lib turish tegishli fakultet dekaniga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror ijrosi o'quv ishlari bo'yicha prorektor va Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor zimmasiga yuklansin.

---

#### **6.5. 2021/2022 o'quv yili bitiruvchilari diplomlarini rasmiylashtirish uchun diplom kvalifikatsiyalarini tasdiqlash to'g'risida**

**ESHITILDI:** U.A. Fayziyeva (*Xodimlar bo'limi*) kengash a'zolariga 2021/2022 o'quv yili bitiruvchilari diplomlarini rasmiylashtirish uchun diplom kvalifikatsiyalarini tasdiqlash to'g'risida axborot berdi.

**Kengash raisi O.X. Xamidov:** ushbu masala bo'yicha kimda qanday savol yoki takliflar bor, marhamat!

Ushbu masala bo'yicha kengash raisi O.X. Xamidov hamda a'zolari o'z fikr mulohazalarini bildirishdi. 2021/2022 o'quv yili bitiruvchilari diplomlarini rasmiylashtirish uchun diplom kvalifikatsiyalarini tasdiqlash masalasi ovozga qo'yildi:

Rozilar - 70 nafar

Qarshilar - yo'q

Betaraflar - yo'q

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. Xodimlar bo'limi boshlig'i U.A. Fayziyevaning "2021/2022 o'quv yili bitiruvchilari diplomlarini rasmiylashtirish uchun diplom kvalifikatsiyalarini tasdiqlash to'g'risida" gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. 2021/2022 o'quv yili bitiruvchilari diplomlarini rasmiylashtirish uchun diplom kvalifikatsiyalarini tasdiqlansin.
3. Ushbu qaror ijro nazorati Xodimlar bo'limi boshlig'i U.A. Fayziyeva zimmasiga yuklatilsin.

---

#### **6.6. Kafedra professor-o'qituvchilarini professor va dotsent ilmiy unvoniga tavsiya etish to'g'risida.**

**6.6.1.** Maktabgacha ta'llim kafedrasi mudiri Qo'ldoshev Rustambek Avezmurodovichning dotsent ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini OAK ga taqdim etish to'g'risida

**6.6.2.** Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedrasi dotsenti Eshonqulov Hamza Ilhomovichning dotsent ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini OAK ga taqdim etish to'g'risida.

**6.6.3.** Iqtisodiyot kafedrasi professori Abdullayev Asliddin Junaydullayevichning professor ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini OAK ga taqdim etish to'g'risida.

**6.6.4.** Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrasi dotsenti Nurov Ziyodulla Saymurodovichning dotsent ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini OAK ga taqdim etish to'g'risida.

**6.6.5.** Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti Harbiy ta'llim fakulteti katta o'qituvchisi Uzoqov Asliddin Mehriddinovichning dotsent ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini OAK ga taqdim etish to'g'risida.

**6.6.6.** Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrasi professori, Hamroyev Halim Roziqovichning professor ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini OAK ga taqdim etish to'g'risida.

**6.6.7.** Tuproqshunoslik kafedrasi mudiri Nazarova Sevara Mustaqimovnaning dotsent ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini OAK ga taqdim etish to'g'risida.

**6.6.8.** Texnologik ta'lif kafedrasi mudiri Murtazoyev Azizbekning dotsent ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini OAK ga taqdim etish to‘g‘risida.

**6.6.9.** Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti Musiqa ta’limi kafedrasi mudiri Yarashev Jo‘rabek To‘rayevichchning dotsent ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini OAK ga taqdim etish to‘g‘risida.

**6.6.10.** Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti Musiqa ta’limi kafedrasi mudiri Shukurov Avaz Ro‘ziboyevich dotsent ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini OAK ga taqdim etish to‘g‘risida.

**6.6.11.** Buxoro davlat universitetining Psixologiya kafedrasi dotsenti Avezov Olmos Ravshanovichning dotsent ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini OAK ga taqdim etish to‘g‘risida.

**6.6.12.** Differensial tenglamalar kafedrasi mudiri Durdiyev Umid Durdimurodovichning dotsent ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini OAK ga taqdim etish to‘g‘risida.

**ESHITILDI: N.G.Dilova** (Kengash kotibi, p.f.f.d., (Ph.D)): - Kengash a’zolariga yuqorida nomlari ko‘rsatilgan ilmiy unvonlarga talabgor professor o‘qituvchilarning O‘zR OAKga yuborish uchun tayyorlagan hujjatlari Nizom talablariga mos kelishini hamda nomzodning mazkur unvonga loyiqligini ta’kidlab, tavsiya beruvchi kafedra, fakultet va ilmiy texnik kengashlarning yig‘ilish bayonlaridan ko‘chirmalari mavjudligini ma’lum qildi. Talabgorlarning so‘nggi yillar mobaynida nashr etirgan ilmiy, o‘quv uslubiy ishlarini, shogirdlari haqidagi buyruqlari mavjudligini ta’kidlab o‘tdi.

Xulosa qilib aytganda, Maktabgacha ta’lim kafedrasi mudiri Qo’ldoshev Rustambek Avezmurodovichning, Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedrasi dotsenti Eshonqulov Hamza Ilhomovichning, Harbiy ta’lim faulteti katta o‘qituvchisi Uzoqov Asliddin Mehriddinovichning, Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti Musiqa ta’limi kafedrasi mudiri Yarashev Jo‘rabek To‘rayevichchning, Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti Musiqa ta’limi kafedrasi mudiri Shukurov Avaz Ro‘ziboyevich, Texnologik ta’lim kafedrasi dotsenti Murtazoyev Azizbekning, Iqtisodiyot kafedrasi professori Abdullayev Asliddin Junaydullayevichning, Turizm va mehmonxona xo’jaligi kafedrasi dotsenti Nurov Ziyodulla Saymurodovichning, Tuproqshunoslik kafedrasi dotsenti Nazarova Sevara Mustaqimovnanih, Buxoro davlat universitetining Psixologiya kafedrasi dotsenti Avezov Olmos Ravshanovichning, Differensial tenglamalar kafedrasi mudiri Durdiyev Umid Durdimurodovichning, Turizm va mehmonxona xo’jaligi kafedrasi professori Hamroyev Halim Rozziqovichlarning barcha hujjatlari tegishli ilmiy unvonlarni olish uchun belgilangan talablarni to‘liq bajargan.

Kengash raisi O.X. Xamidov mazkur lavozimga talabgorning nomzodini tavsiya berish uchun ochiq ovoz berish taklifini kiritdi. Kengash a’zolari ushbu taklifni bir ovozdan qo‘llab-quvvatlashdi.

Kengashda 73 nafar Kengash a’zosida 70 nafari ishtirok etdi.

Ochiq ovoz berish natijasi quyidagicha:

Talabgorlar uchun 70 kishi "rozi", "qarshi" va betaraflar yo‘q.

Kengash raisi ushbu qarorini tasdiqlab berishni ovozga qo‘ydi, Kengash a’zolari sanoq komissiyasining mazkur qarorini bir ovozdan ma’qulladilar. Qarshilar va betaraflar bo‘lmadi.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, kengash **qaror qiladi:**

1. Maktabgacha ta’lim kafedrasi mudiri Qo’ldoshev Rustambek Avezmurodovichning, Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedrasi dotsenti Eshonqulov Hamza Ilhomovichning, Harbiy ta’lim faulteti katta o‘qituvchisi Uzoqov Asliddin Mehriddinovichning, Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti Musiqa ta’limi kafedrasi mudiri Yarashev Jo‘rabek To‘rayevichchning, Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti Musiqa ta’limi kafedrasi mudiri Shukurov Avaz Ro‘ziboyevich, Texnologik ta’lim kafedrasi dotsenti Murtazoyev

Azizbekning, Iqtisodiyot kafedrasi professori Abdullayev Asliddin Junaydullayevichning, Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrasi dotsenti Nurov Ziyodulla Saymurodovichching, Tuproqshunoslik kafedrasi dotsenti Nazarova Sevara Mustaqimovnanihr, Buxoro davlat universitetining Psixologiya kafedrasi dotsenti Avezov Olmos Ravshanovichning, Differensial tenglamalar kafedrasi mudiri Durdiyev Umid Durdimurodovichning, Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrasi professori Hamroyev Halim Rozziqovichlar tegishli ilmiy unvonlarga tavsiya etilsin.

2. Talabgorlarning hujjatlarini 10 ish kunida O'zR OAKga yetkazish vazifasi Kengash kotibi N.G.Dilova zimmasiga yuklatilsin.

---

**6.5. Buxoro davlat universitetida budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan grant ajratish orqali doktoranuraga tanlov asosida kvotaga qo'shimcha ravishda qabul qilish TARTIBI ni tasdiqlash to'g'risida**

**ESHTILDI:** G.T. Zaripov (Ilmiy tadqiqot, innovatsiyalar va ilmiy pedagog kadrlarni tayyorlash bo'limi boshlig'i) kengash a'zolariga Buxoro davlat universitetida budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan grant ajratish orqali doktoranuraga tanlov asosida kvotaga qo'shimcha ravishda qabul qilish TARTIBI ni tasdiqlash to'g'risida axborot berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi «Davlat oliy ta'limga muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-60-son hamda «Davlat oliy ta'limga muassasalariga molivaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-61-son qarorlariga muvofiq Buxoro davlat universitetida budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan grant ajratish orqali doktoranturaga tanlov asosida kvotani shakllantirish maqsadida Nizom ishlab chiqildi.

Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'Imagan shaxslarni oliy ta'limga keyingi ta'limga institutlariga o'qishga qabul qilish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va/yoki xalqaro shartnomalarga muvofiq to'lov-kontrakt asosida qabul qilish bo'yicha shartnoma nusxalarini tayyorlandi.

Tayanch doktoranturada o'qish uchun talabgorlar mutaxassislik va chet tili (ta'limning oldingi darajalarida o'r ganilgan xorijiy til) bo'yicha kirish imtihonlari topshirishini inobatga olib, chet tili hamda mutaxassislik fanlaridan dasturlar ishlab chiqildi.

Doktoranturada o'qish uchun kirayotgan talabgorlar Kollegial organ tomonidan ixtisoslik bo'yicha suhabatdan o'tkaziladi.

Tayanch doktorantura va doktoranturaga o'qishga qabul qilish Universitet buyrug'i bilan har yili 5-dekabrgacha amalga oshiriladi. Bunda tayanch doktorantura va doktoranturada ta'limga olish keyingi yilning 1-yanvaridan boshlanadi.

O'qishga qabul qilish to'g'risidagi buyruqda ilmiy rahbarlar va ilmiy konsultantlar (konsulant bo'lgan taqdirda) ham belgilanadi.

**Kengash raisi O.X. Xamidov:** ushbu masala bo'yicha kimda qanday savol yoki takliflar bor, marhamat!

Ushbu masala yuzasidan kengash a'zolarining fikrlari eshitildi, xulosalar berildi

**Kun tartibidagi masala yuzasidan Kengash qaror qiladi:**

1. Ilmiy tadqiqot, innovatsiyalar va ilmiy pedagog kadrlarni tayyorlash bo'limi boshlig'i G.T. Zaripovning axboroti ma'lumot uchchun qabul qilinsin.

2. Doktorant va mustaqil tadqiqotchilarga dissertatsiya himoyalari o'z vaqtida amalga oshirish bo'yicha zarur shart-sharoitlar yaratish, ilmiy rahbarlar va ilmiy maslahatchilarini rag'batlantirish hamda har chorakda kamida bir marta shaxsan doktorantlar bilan yuzma-yuz

uchrashib, ularning muammolarini hal qilish tizimini yaratish choralari ko‘rilsin. (Mas’ullar: IT, I va IPKTB boshlig‘i G.T. Zaripov, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari)

3. Tayanch doktorantlar, doktorantlar va mustaqil izlanuvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini natijalarini baholash, yillik reja bajarilishini monitoring qilish, ilmiy-tadqiqot ishlarni bajarishda mavjud muammolarni aniqlash va ularni yechimini topish bo‘yicha so‘rovnomalar o‘tkazilsin. (Mas’ul: IT, I va IPKTB boshlig‘i G.T. Zaripov)

4. Xalqaro ilmiy-texnikaviy ma’lumotlar bazalari bilan ishslash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan seminarlar tashkil etilsin. (Mas’ul: IT, I va IPKTB boshlig‘i G.T. Zaripov)

5. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor A.T. Jo‘rayev zimmasiga yuklatilsin.

---

#### **6.6. Falsafa doktori (PhD) doktorlik dissertatsiya mavzusi va ilmiy rahbarini qayta tasdiqlash to‘g‘risida**

**ESHITILDI: G.T. Zaripov** (Ilmiy tadqiqot, innovatsiyalar va ilmiy pedagog kadrlarini tayyorlash bo‘limi boshlig‘i) kengash a’zolariga Falsafa doktori (PhD) doktorlik dissertatsiya mavzusi va ilmiy rahbarini qayta tasdiqlash to‘g‘risida axborot berdi.

**1.1.** Jahon tarixi kafedrasi mustaqil izlanuvchisi Kazakova Marifat Dexkanovnaning “Buxoro viloyati xotin-qizlarining O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisidiy va madaniy hayotidagi ishtiroki (1991-2021)” mavzusidagi 07.00.01-O‘zbekiston tarixi ixtisosligi bo‘yicha falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun dissertatsiya ishiga ilmiy rahbar etib t.f.d., professor Sh.A. Hayitovni qayta tasdiqlash to‘g‘risida.

**1.2.** Biologiya kafedrasi tayanch doktoranti Xodjayeva Zarina Faxriddin qizining “Buxoro viloyati Dengizko‘l zovurida fitoplankton va zooplanktonlarini aniqlash, ko‘paytirish va baliqchilikda qo‘llash” mavzusidagi 03.00.12-Biotexnologiya ixtisosligi bo‘yicha falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun dissertatsiya ishiga ilmiy rahbar etib t.f.n., dotsent N.E. Rashidovni qayta tasdiqlash to‘g‘risida.

**1.3.** Pedagogika instituti Harbiy ta’lim fakulteti mustaqil izlanuvchisi Safoyev Husen Aminovichning 13.00.01-Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi ixtisosligi bo‘yicha “Talabalarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash texnologiyalari” mavzusidagi dissertatsiya mavzusini ushbu ixtisoslik bo‘yicha “Talabalarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish” mavzusiga o‘zgartirish hamda ayni damda rahbarlik qilayotgan p.f.d., dotsent T.T. Utebayevni o‘z rozilik xatiga asosan ilmiy rahbarlikdan ozod etilib, ilmiy rahbar etib p.f.f.d (PhD), dotsent A.E. Sattorovni tayinlash to‘g‘risida.

**1.4.** Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi kafedrasi mustaqil izlanuvchisi Nuriddinova Shahnoza Sadriddinovnaning 10.00.02-O‘zbek adabiyoti ixtisosligi bo‘yicha “Hozirgi o‘zbek bolalar she’riyatining poetik tamsillari va badiiy-estetik xususiyatlari (A. Ko‘chimov, H. Imonberdiyev ijodi misolida)” dissertatsiya mavzusini tasdiqlash hamda ilmiy rahbar etib p.f.f.d.(PhD), professor B.S. Jamilovani tayinlash to‘g‘risida.

**1.5.** Buxoro tarixi kafedrasi mustaqil izlanuvchisi Hayotova Nafisa Zakirovnaning 07.00.01-O‘zbekiston tarixi ixtisosligi bo‘yicha tarix fanalari falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun dissertatsiya mavzusini “Buxoroda zamonaviy shahar madaniyati (1991-2021)” tarzida tasdiqlash hamda ilmiy rahbar etib t.f.f.d. (PhD), dotsent D.M. Jamolovani tayinlash to‘g‘risida.

**1.6.** Iqtisodiyot kafedrasi tayanch doktoranti Sayfulloyev Oybek Olimovichning 08.00.13-Menejment ixtisosligi bo‘yicha iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun i.f.d., dotsent O.S. Qahhorov rahbarligida yozayotgan dissertatsiya mavzusini “Agroturizm sohasiga investitsiyalarni jalb etishning boshqarish mexanizmini takomillashtirish” tarzida qayta tasdiqlash to‘g‘risida.

**1.7.** Psixologiya kafedrasi tayanch doktoranti A.Sh. Akramovaning 19.00.05-Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya ixtisosligi bo‘yicha dissertatsiya mavzusini “Talabalarda liderlik sifatlari shakllanishining ijtimoiy psixologik omillari” tarzida tasdiqlash hamda A.Sh. Akramovaning ilmiy rahbari p.f.n., dotsent M.N. Usmonovani o‘z rozilik xatiga asosan ilmiy

rahbarlikdan ozod etilib, ilmiy rahbar etib p.f.d (DSc.), dotsent D.Sh. Barotovani tayinlash to‘g‘risida.

**1.8.** Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi mustaqil izlanuvchisi M.S. Ashurovaning 13.00.01-Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi ixtisosligi bo‘yicha dissertatsiya mavzusini “Husayn Voiz Koshifiy asarlari vositasida talabalarga ma’naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish texnologiyasi” tarzida tasdiqlash hamda ilmiy rahbar etib p.f.d (DSc.), professor A.R. Hamroyevni tayinlash to‘g‘risida.

**1.9.** Biologiya kafedrasi mustaqil izlanuvchisi M.B. Tog‘ayevaning 03.00.12-Biotexnologiya ixtisosligi bo‘yicha dissertatsiya “Buxoro vohasidagi alyuvial tuproqlarning ekologik melerativ holatini yaxshilash” mavzusini, “Mikrobiologik preparatlar ta’sirida tuproq unumdarligini oshirish asoslari” tarzida qayta tasdiqlash hamda M.B. Tog‘ayevaning ilmiy rahbari b.f.n., professor N.B.Raupovani o‘z rozilik xatiga asosan ilmiy rahbarlikdan ozod etib, ilmiy rahbar etib b.f.n., dotsent B.B. Toxirovni tayinlash to‘g‘risida.

**ESHITILDI:** G.T. Zaripov (Ilmiy tadqiqot, innovatsiyalar va ilmiy pedagog kadrlarni tayyorlash bo‘limi boshlig‘i) kengash a’zolariga yuqorida nomlari keltirilgan professor – o‘qituvchilarning Falsafa doktori (PhD) doktorlik dissertatsiya mavzusi va ilmiy rahbarini qayta tasdiqlash to‘g‘risida ma’lumot berdi.

- Juhon tarixi kafedrasi mustaqil izlanuvchisi Kazakova Marifat Dexkanovnaning “Buxoro viloyati xotin-qizlarining O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisidiy va madaniy hayotidagi ishtiroki (1991-2021)” )” mavzusidagi 07.00.01-O‘zbekiston tarixi ixtisosligi bo‘yicha falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun dissertatsiya ishiga ilmiy rahbar etib t.f.d., professor Sh.A. Hayitovni;

- Biologiya kafedrasi tayanch doktoranti Xodjayeva Zarina Faxriddin qizining “Buxoro viloyati Dengizko‘l zovurida fitoplankton va zooplanktonlarini aniqlash, ko‘paytirish va baliqchilikda qo‘llash” mavzusidagi 03.00.12-Biotexnologiya ixtisosligi bo‘yicha falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun dissertatsiya ishiga ilmiy rahbar etib t.f.n., dotsent N.E. Rashidovni;

- Pedagogika instituti Harbiy ta’lim fakulteti mustaqil izlanuvchisi Safoyev Husen Aminovichning 13.00.01-Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi ixtisosligi bo‘yicha “Talabalarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash texnologiyalari” mavzusidagi dissertatsiya mavzusini ushbu ixtisoslik bo‘yicha “Talabalarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish” mavzusiga o‘zgartirish hamda ayni damda rahbarlik qilayotgan p.f.d., dotsent T.T. Utebayevni o‘z rozilik xatiga asosan ilmiy rahbarlikdan ozod etilib, ilmiy rahbar etib p.f.f.d (PhD), dotsent A.E. Sattorovni;

- Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi kafedrasi mustaqil izlanuvchisi Nuriddinova Shahnoza Sadriddinovnaning 10.00.02-O‘zbek adabiyoti ixtisosligi bo‘yicha “Hozirgi o‘zbek bolalar she’riyatining poetik tamsillari va badiiy-estetik xususiyatlari (A. Ko‘chimov, H. Imonberdiyev ijodi misolida)” dissertatsiya mavzusini tasdiqlash hamda ilmiy rahbar etib p.f.f.d.(PhD), professor B.S. Jamilovani;

- Buxoro tarixi kafedrasi mustaqil izlanuvchisi Hayotova Nafisa Zakirovnaning 07.00.01-O‘zbekiston tarixi ixtisosligi bo‘yicha tarix fanalari falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun dissertatsiya mavzusini “Buxoroda zamonaviy shahar madaniyati (1991-2021)” tarzida tasdiqlash hamda ilmiy rahbar etib t.f.f.d. (PhD), dotsent D.M. Jamolovani;

- Iqtisodiyot kafedrasi tayanch doktoranti Sayfulloyev Oybek Olimovichning 08.00.13-Menejment ixtisosligi bo‘yicha iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun i.f.d., dotsent O.S. Qahhorov rahbarligida yozayotgan dissertatsiya mavzusini “Agroturizm sohasiga investitsiyalarni jalb etishning boshqarish mexanizmini takomillashtirish” tarzida qayta tasdiqlash;

- Psixologiya kafedrasi tayanch doktoranti A.Sh. Akramovaning 19.00.05-Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya ixtisosligi bo‘yicha dissertatsiya mavzusini “Talabalarda liderlik sifatlari shakllanishining ijtimoiy psixologik omillari” tarzida tasdiqlash hamda A.Sh. Akramovaning ilmiy rahbari p.f.n., dotsent M.N. Usmonovani o‘z rozilik xatiga asosan ilmiy rahbarlikdan ozod etilib, ilmiy rahbar etib p.f.d (DSc.), dotsent D.Sh. Barotovani;

- Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi mustaqil izlanuvchisi M.S. Ashurovaning 13.00.01-Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi ixtisosligi bo‘yicha dissertatsiya mavzusini “Husayn Voiz Koshify arslari vositasida talabalarga ma’naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish texnologiyasi” tarzida tasdiqlash hamda ilmiy rahbar etib p.f.d (DSc.), professor A.R. Hamroyevni;

- Biologiya kafedrasi mustaqil izlanuvchisi M.B. Tog‘ayevaning 03.00.12-Biotexnologiya ixtisosligi bo‘yicha dissertatsiya “Buxoro vohasidagi aluvial tuproqlarning ekologik melerativ holatini yaxshilash” mavzusini, “Mikrobiologik preparatlar ta’sirida tuproq unumdarligini oshirish asoslari” tarzida qayta tasdiqlash hamda M.B. Tog‘ayevaning ilmiy rahbari b.f.n., professor N.B.Raupovani o‘z rozilik xatiga asosan ilmiy rahbarlikdan ozod etib, ilmiy rahbar etib b.f.n., dotsent B.B. Toxirov nomzodliklarini va mavzularini tasdiqlab berishni so‘radi.

Ushbu masala bo‘yicha Kengash raisi va a’zolari o‘z taklif, fikr-mulohazalarini bildirishdi.

Shundan so‘ng, kengash raisi yuqorida ko‘rsatilgan tadqiqotchilarining ilmiy mavzularini va rahbarlarini tasdiqlab berish taklifini ovozga qo‘ydi.

Rozilar - 70 nafar

Qarshilar - yo‘q

Betaraflar - yo‘q

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**

1. Ilmiy tadqiqot, innovatsiyalar va ilmiy pedagog kadrlarni tayyorlash bo‘limi boshlig‘i G.T. Zaripovning Falsafa doktori (PhD) doktorlik dissertatsiya mavzusi va ilmiy rahbarini qayta tasdiqlash to‘g‘risidagi axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. Yuqorida nomlari keltirilgan tadqiqotchilarining ilmiy ish mavzulari va rahbarlari belgilangan tartibda tasdiqlansin.
3. Ushbu qaror ijro nazorati Ilmiy tadqiqot, innovatsiyalar va ilmiy pedagog kadrlarni tayyorlash bo‘limi boshlig‘i G.T. Zaripovning

---

## **6.9. Buxoro davlat universiteti kengashiga Qoshma dasturlarni muvofiqlashtirish bo‘limi tomonidan BuxDU va Holon texnologiyalar instituti bilan hamkorlikdagi qo‘shma ta’lim dasturlari 3-bosqich talabalarining shartnomaga uchun to’lovlarini tartibga solish tog’risida**

**ESHITILDI: O.X. Raximov** (Qo‘shma ta’lim dasturlarini muvofiqlashtirish bo‘limi boshlig‘i) kengash a’zolariga Buxoro davlat universiteti va Isroilning Holon texnologiyalar instituti tomonidan 2019 yil 13 mayda imzolangan Qo‘shma ta’lim dasturlarni tashkil qilishga oid shartnomaga muvofiq o‘qish muddati 4 yillik bo‘lgan “Informatika va axborot texnologiyalari” va “Amaliy matematika va informatika” qo‘shma bakalavriat ta’lim dasturlari 2,5+1,5 (2.5 yil (1-5 semestrlar) BuxDUda, 1.5 yil (6-7 semestrlar onlayn va 8 semestr oflayn tarzda) hamkor OTMdada shaklida olib borilishi belgilangan. Ushbu yo‘nalishning 3-bosqich talabalarini 2019/2020 o‘quv yildidan 2021/2022 o‘quv yilining birinchi jarayonigacha BuxDUda rejalashtirilgan 5 semestrni yakunlaganligi munosabati bilan o‘quv rejadagi fanlarni barchasini o‘zlashtirgan, (yetarli reyting ballarni to‘plagan), shartnomaga pullarini to‘lagan.

Hamkor OTM tomonidan onlayn tarzda o‘tkazilgan imtihonlarda talabalarning hech biri ingliz tili bilimlari va mutaxassislik fanlaridan o‘zlashtirishi talab darajasida deb topilmaganligi sababli 5 semestrni yakunlagan talabalarga 2022/2023 o‘quv yili boshlanishiga qadar hamkor OTM bilan kelishilgan holda Ingliz tili va mutaxassislik fanlaridan tayyorlov muddati berildi.

Tayyorlov muddati davrida talabalarning ingliz tilidan bilimlarini oshirish maqsadida “Ingliz tili tayyorlov kursi” tashkil qilindi va talabalar ushbu kursda ingliz tilini tahsil olib kelmoqda.

Sizdan ushbu qo'shma ta'lim dasturining xarakteri (ya'ni: talabalar xorijiy OTMning talablarini bajarishmaguncha talabaga Hamkor OTM tomonidan o'qishni davom ettirish imkoniyati berilmaydi) dan kelib chiqib dasturning uchinchi bosqich talabalariga tayyorlov muddati berishni va ushbu tayyorlov muddati davomida hech qanday o'quv reja amalga oshirilmasligini inobatga olib talabalarni 2021/2022 o'quv yilining ikkinchi jarayoni uchun qarzdorlik hisoblanmasligi va talabalar hamkor OTMning talablarini bajarib o'quv jarayonini hamkor OTMdA boshlagunga qadar to'lov-shartnomasi miqdorinidan qarzdorlik hisoblanmaslikni so'rayman.

**Kengash raisi O.X. Xamidov:** ushbu masala bo'yicha kimda qanday savol yoki takliflar bor, marhamat!

Ushbu masala bo'yicha kengash raisi O.X. Xamidov hamda a'zolari ma'ruzachining taklifini qo'llab – quvvatlab ovoz berishdi.

Rozilar - 70 nafar

Qarshilar - yo'q

Betaraflar - yo'q

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. Hamkor OTM tomonidan onlayn tarzda o'tkazilgan imtihonlardan o'ta olmaganligi tufayli dasturning uchinchi bosqich talabalariga tayyorlov muddati berilsin.

2. Ushbu tayyorlov muddati davomida hech qanday o'quv reja amalga oshirilmasligini inobatga olib talabalarni 2021/2022 o'quv yilining ikkinchi jarayoni uchun qarzdorlik hisoblanmasin (mas'ul: Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor **J.U.Rashidovga** va Bosh buxgalter **U.S.Narziyevga**).

3. Talabalar hamkor OTMning talablarini bajarib o'quv jarayonini hamkor OTMdA boshlagunga qadar to'lov-shartnomasi miqdoridan qarzdorlik hisoblanmasin (mas'ul: Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor **J.U.Rashidovga** va Bosh buxgalter **U.S.Narziyevga**).

**6.10. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 10-avgustdagagi 412-sod buyrug'i asosida magistraturaning oxirgi bosqichi talabalariga bakalavriat ta'lim yo'naliшlarining xususiyatlaridan kelib chiqib, universitet kengashi qarori asosida bakalavriat talabalariga dars berish uchun 0,5 stavkagacha pedagogik faoliyat olib borishga ruxsat berish to'g'risida**

**ESHITILDI: R.G'.Jumayev** (O'quv-ishlari bo'yicha prorektor) O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Hay'atining 2020-yil 9-avgustdagagi «Yangi 2021-2022 o'quv yiliga tayyorgarlik bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar va dolzarb vazifalar haqida»gi 3/1-sod Hay'at qarori hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 10-avgustdagagi 412-sod buyrug'i asosida magistraturaning oxirgi bosqichi talabalariga bakalavriat ta'lim yo'naliшlarining xususiyatlaridan kelib chiqib, universitet kengashi qarori asosida bakalavriat talabalariga 2022-yil 7-iyundan dars berish uchun 0,5 stavkagacha pedagogik faoliyat olib borishga ruxsat berilgan magistr ro'yxati

Nº	F.I.O.	Magistratura mutaxassisligi, lavozimi	Kafedra nomi	Stav-kasi
1.	Жумаева Гулноза	Lingvistika,(ingliz tili yo'naliшhi) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti	Ingliz adabiyoti va stilistika kafedrasi o`qituvchisi	0.5

Kengash raisi mazkur masalani kengash a'zolari hukmiga havola qildi.

Kengash a'zolari ushbu taklifni bir ovozdan qo'llab – quvvatladilar. Hamma rozi, qarshilar va betaraflar yo'q.

## Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**

1. O‘quv-ishlari bo‘yicha prorektor R.G‘.Jumayevning Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020-yil 10-avgustdagi 412-son buyrug‘i asosida magistraturaning oxirgi bosqichi talabalariga bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarining xususiyatlaridan kelib chiqib, universitet kengashi qarori asosida bakalavriat talabalariga dars berish uchun 0,5 stavkagacha pedagogik faoliyat olib borishga ruxsat berish to‘g‘risidagi axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. Ro‘yxatda keltirilgan magistrga 07.06.2022y. dan tegishli kafedradagi vakant soatlar hisobidan belgilangan tartib asosida dars soatlari ajratilsin.
3. Mazkur qarorlarning ijro nazorati O‘quv-ishlari bo‘yicha prorektor R.G‘.Jumayev zimmasiga yuklatilsin

---

### **6.11. 2021/2022 o‘quv yili 2-jarayonida yakuniy nazoratlarni muddatidan oldin topshiradigan talabalarga ruxsat berish to‘g‘risida**

**ESHITILDI:** S.S. Muxlisov (o‘quv uslubiy boshqarma boshlig‘i v.v.b.) kengash a’zolariga oilaviy sharoiti va sog‘lig‘ini e’tiborga olgan holda 2021/2022 o‘quv yili 2-jarayonida yakuniy nazoratlarni muddatidan oldin topshirish uhun ariza bilan murojaat qilgan talabalarni tanishtirdi. Ushbu talabalarning arizalariga qo‘srimcha ravishda taqdim etgan hujjatlari asos sifatida qabul qilinganligini ta’kidlab o‘tdi.

Ariza bilan murojaat qilgan talabalar:

t/r	F.I.O	Yo‘nalish	Guruh	Sabab
1	Saidova Saida	Amaliy san’at	12-1XABS-19	Rossiyaga borib davolanish
2	Bafoyeva Mahliyo	O‘zbek tillarini o‘qitish	6-8UZB-19	AQSh davlatiga borish

O‘quv uslubiy boshqarma boshlig‘i v.v.b S.S. Muxlisov so‘zi yakunida yuqorida nomlari keltirilgan talabalarning ariza va tegishli hujjatlari ishchi guruh tomonidan to‘liq o‘rganilganligini va ishchi guruh xulosasiga ko‘ra ushbu talabalarga yakuniy nazoratlarni muddatidan oldin topshirishga ruxsat berish mumkinligini aytib o‘tdi.

Ushbu masala bo‘yicha kengash raisi O.X. Xamidov hamda kengash a’zolaridan tegishli fakultet dekanlari, kasaba uyushmasi qo‘mitasi raisi so‘zga chiqib o‘z fikr-mulohazalarini bildirdilar. Ishchi guruh xulosasini qo‘llab quvvatladilar.

Muhokama so‘ngida universitet rektori, kengash raisi O.X. Xamidov kengash a’zolaridan yuqorida ariza bilan murojaat qilgan talabalarga 2021/2022 o‘quv yili 2-jarayonida yakuniy nazoratlarni muddatidan oldin topshirishga ruxsat berish to‘g‘risidagi taklifni ovozga qo‘ydi.

Rozilar - 70 nafar

Qarshilar - yo‘q

Betaraflar - yo‘q

## Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**

1. O‘quv uslubiy boshqarma boshlig‘i v.v.b S.S. Muxlisovning 2021/2022 o‘quv yili 2-jarayonida yakuniy nazoratlarni muddatidan oldin topshiradigan talabalarga ruxsat berish to‘g‘risidagi axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. Amaliy san’at yo‘nalishi 12-1XABS-19 guruh talabasi Saidova Saida va O‘zbek tillarini o‘qitish 6-8UZB-19 guruh talabasi Bafoyeva Mahliyolarga 2021/2022 o‘quv yili 2-jarayonida yakuniy nazoratlarni muddatidan oldin topshirishga ruxsat berilsin.
3. Mazkur qaror ijro nazorati O‘quv-ishlari bo‘yicha prorektor R.G‘.Jumayev va tegishli fakultet dekanlari zimmasiga yuklatilsin.

**6.12. 2021/2022 o'quv yili qabulida shartnama pulini 1-aprelgacha to'lamagan talabalarni talabalar safiga qabul qilishga ruxsat berish to'g'risida**

**ESHITILDI: R.G'. Jumayev** (O'quv ishlari bo'yicha prorektor) kengash a'zolariga oilaviy sharoiti va sog'lig'ini e'tiborga olgan holda 2021/2022-o'quv yilda O'zbekiston Respublikasi ta'lif muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha Davlat komissiyasining 2021-yil 8-sentabrdagi 6-son bayoniga muvofiq Buxoro davlat universiteti talabalar safiga to'lov kontrakt asosida talabalikka tavsiya etilgan abiturentlar; O'zbekiston Respublikasi ta'lif muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha Davlat komissiyasining 2008-yil 13-avgustdagi 15-son bayoniga muvofiq ikkinchi oliy ta'limga tavsiya etilgan abiturentlar; o'qishini respublikaning boshqa OTMlaridan, xorijiy hamda nodavlat OTMlaridan Buxoro davlat universitetiga ko'chirgan talabalardan bir necha nafari 2022-yil 1-aprelgacha shartnama to'lovini to'lamaganligi sababli ularga universitet talabalar safiga qabul buyrug'i rasmiylashtirmaganligi aytildi.

O'quv ishlari bo'yicha prorekтор R.G'. Jumayev so'zi yakunida 2022-yil 1-apreldan keyin shartnama to'lovini to'lagan talabalarni fanlardan qarzdorligi mavjud bo'lmasa, shaxsiy hujjatlari yig'ma jildini taqdim etgan bo'lsa universitet talabalar safiga qabul buyrug'i rasmiylashtirilishiga ruxsat berish mumkinligini aytib o'tdi.

Ushbu masala bo'yicha kengash raisi O.X. Xamidov hamda kengash a'zolaridan tegishli fakultet dekanlari, kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi so'zga chiqib o'z fikr-mulohazalarini bildirdilar. Ishchi guruh xulosasini qo'llab quvvatladilar.

Muhokama so'ngida universitet rektori, kengash raisi O.X. Xamidov kengash a'zolaridan 2022-yil 1-apreldan keyin shartnama to'lovini to'lagan talabalarga universitet talabalar safiga qabul buyrug'i rasmiylashtirilishiga ruxsat berish to'g'risidagi taklifni ovozga qo'ydi.

Rozilar - 70 nafar

Qarshilar - yo'q

Betaraflar - yo'q

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, kengash qaror qiladi:

1. O'quv ishlari bo'yicha prorekтор R.G'. Jumayevning 2022-yil 1-apreldan keyin shartnama to'lovini to'lagan talabalarga universitet talabalar safiga qabul buyrug'i rasmiylashtirilish to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. O'quv ishlari bo'yicha prorekтор R.G'. Jumayev 2021/2022 o'quv yilda O'zbekiston Respublikasi ta'lif muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha Davlat komissiyasining 2021-yil 8-sentabrdagi 6-son bayoniga muvofiq Buxoro davlat universiteti talabalar safiga to'lov kontrakt asosida talabalikka tavsiya etilgan abiturentlar; O'zbekiston Respublikasi ta'lif muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha Davlat komissiyasining 2008-yil 13-avgustdagi 15-son bayoniga muvofiq ikkinchi oliy ta'limga tavsiya etilgan abiturentlar; o'qishini respublikaning boshqa OTMlaridan, xorijiy hamda nodavlat OTMlaridan Buxoro davlat universitetiga ko'chirgan talabalardan 2022-yil 1-apreldan keyin shartnama to'lovini to'lagan talabalarni dekanat hamda buxgalteriya xulosasi asosida universitet talabalar safiga qabul buyrug'i rasmiylashtirilsin.
3. Ushbu qaror ijrosini nazorat etish Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorekтор O'.U. Rashidov zimmasiga yuklansin

**Kengash raisi:** Buxoro davlat universiteti kengashining **10 - yig'ilishi** kun tartibiga kiritilgan barcha masalalar muhokama qilindi va kengash o'z ishini yakunlaydi.

**Kengash o'z ishini tugatdi.**

BuxDU kengashi raisi  
BuxDU kengashi kotibi



**O.X. Xamidov**  
**N.G. Dilova**